

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**T A R I X   F A K U L T E T I**

**«Himoyaga ruxsat etilsin»**

Fakultet dekani \_\_\_\_\_  
t.f.n., dotsent V.T.Ishquvatov  
2014 yil «\_\_» \_\_\_\_\_

5140600 «Tarix» ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi  
**Bobojonov Islombek Usmonaliyevichning**  
“O‘zbekistonda Oliy davlat vakillik organi-Qonun chiqaruvchi  
hokimyatning shakillanishi va rivojlanishi”  
mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:** «Tarix» kafedrası dotsenti,  
tarix fanlari nomzodi N.Rasulova

\_\_\_\_\_

**«Himoyaga tavsiya etilsin»**  
«Tarix» kafedrası mudiri  
\_\_\_\_\_ t.f.n., dots **Z.A.IIhomov**  
2014 y. «\_\_» \_\_\_\_\_

TOSHKENT – 2014

## **Mundarija**

KIRISH.....	3
I BOB. O'ZBEKISTONDA OLIY DAVLAT VAKILLIK ORGANI – QONUN CHIQUARUVCHI HOKIMIYATNING SHAKLLANISHI .....	6
1.1 Qonun chiqaruvchi hokimiyat shakllanishining .....	6
huquqiy asoslari.....	6
1.2 O'zbekistonda Oliy Majlisning shakllanish jarayoni tarixi .....	13
1.3 Parlament tuzilishi va vakolatlari.....	21
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN CHIQUARUVCHI HOKIMIYATINING TAKOMILLASHUVI .....	30
2.1 Bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tilishi .....	30
2.2 Parlamentdagi fraksiyalar faoliyati, yutuq va kamchiliklari.....	42
2.3 Qonun chiqaruvchi hokimiyatning takomillashuvi borasida olib borilgan islohotlar.....	48
III BOB. MAVZUNI KASB-HUNAR KOLLEJLARI VA AKADEMIK LITSEYLARDA O'QITISHNING TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODIK TAVSIYALAR.....	54
3.1. Mavzuni kasb-hunar kollejlari va Akademik litseylarda o'qitishning ta'lim texnologiyalari.....	54
3.2. “O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi” mavzusini o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitish uchun metodik tavsiyalar .....	59
XULOSA.....	62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	65
ILOVALAR.....	69
TAYANCH SO'ZLAR LUG'ATI .....	74

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikni qo'lga kiritgach, dastlabki yillardanoq yurtimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik-huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan tarixiy islohotlar davri boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov g'oyalari va tashabbusi bilan amalga joriy etilgan turli sohalardagi bu yangilanishlar butun jamiyat hayotini qamrab oldi, fuqarolar ong-u tafakkurida ijobiy o'zgarishlarni vujudga keltirdi. O'z haququqini tanigan, asrlar davomida orzu qilgani erkinlik, hurlik muhitiga erishgan xalq tomonidan to'la qo'llab-quvvatlangan islohotlar qisqa davr ichida o'z samarasini bera boshladi va O'zbekiston dunyoning barqaror rivojlanayotgan davlatalari qatoriga qo'shildi.

Bugungi O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini yanada farovonlashtirishga xizmat qiladigan islohotlar ko'lemi kengayish bilan birga qonun ijodkorligi sohasida ham ko'plab faol tashabbuslar ko'zga tashlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi parlamentini ikki palatali ko'rinishga keltirish yuzasidan umumxalq referendumining o'tkazilishini va uning natijasida ikki palatali parlamentga asos solinishini davlat hokimiyati bo'linish tizimi va boshqaruvi sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida e'tirof etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005-yil 28-yanvardagi qo'shma majlisidagi ma'ruzasida qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa sifatida belgilandi<sup>1</sup>.

Ikki palatali palament faoliyatida demokratizm tamoyillarini yanada kengroq yaratilishi bugungi kun davlatimiz oldiga qo'ygan maqsadiga erishishida asos bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. 2005. 5-б.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma'ruza va nutqlari, asarlari tadqiqot ishi uchun fundamental ahamiyatga ega, chunki mazkur asarlarda mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borgan huquqshunos olimlarning asarlari atroflicha o'rganildi. A.A.Azizxo'jayev, A.T.To'laganov, E.H.Xalilov, O.T.Husanov, H.T.Odilqoriyev, A.Latipov, P.Rustamov, O.Muhammadjonov, A.Saidov, Qudratxojayev, S.A.Abbosxo'jayev, I.R.Bekovlarning<sup>1</sup> asarlari va ilmiy tadqiqot ishlarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, uning palatalari shakllanishi va faoliyatini tashkil etish masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Qolaversa, bu soha yuzasidan xorijiy olimlar tadqiqotlari ham ahamiyatga molik jihatdir. Ulardan buyuk fransuz ma'rifatparvari Sharl Lui Monteskye, olmon faylasufi Gegel, S.V.Bobotov, I.Y.Jigachyov,<sup>2</sup> kabi olimlar asarlarida xorijiy parlamentlar, uning organlari ishini tashkil etish masalasi yuzasidan qator mulohazalar bildirilgan.

**Mavzuning davriy chegarasi.** Mavzuning davriy chegarasi 1990-2014-yillarni o'z ichiga oladi.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi.** O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish va o'rganish.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining vazifalari.** Vazifalar belgilangan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ular quyidagilar:

---

<sup>1</sup> Азизхўжаев А.А. давлатчилик ва маънавият.(тажриба ва сиёсий таҳлил). – Т.: Шарқ, 1997. – 112-б.; Тўлаганов А.Т. “Давлат ҳокимиятини вакиллик ва ўзини-ўзи бошқариш органлари фаолиятини ташкил этиш” (дарслик). – Т.: 2002. – 196-б.; Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – 384-б.; Ўзбекистон Республикаси Парламенти: биринчи чақириқ Олий мажлисининг фаолияти. Рисола. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999. – 78-б.; Одилқориев Ҳ.Т. “Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни”. – Т.: “Ўзбекистон”, 1995. – 208-б.; Одилқориев Ҳ.Т., Тультеев И.Т., Мухамедов Ў.Х. Икки палатали парламент. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси., 2005. – 204-б.; Хусанов О.Т. Ўзбекистон Республикасининг давлат органлари. Ўқув қўлланма. – Т.: “Шарқ”, 1996. – 120-б.; Мустақиллик ва маҳаллий ҳокимият. (Хуқуқий, ташкилий масалалар ва муаммолар). – Т.: “Шарқ”, 1996., – 87б.;

<sup>2</sup> Конституционное (государственное) право зарубежных стран. Т. 1-2.-М., 1996. – С. 456. Боботов С.В., Жигачёв И.Ю., Введение в правовую систему США. – 1997., – 187 –б.; Гегель Г. В. Ф. Философия права. – Москва: Мысль, 1990. С. 476.

- ✓ Qonun chiqaruvchi hokimiyat shakllanishining huquqiy asoslarini o'rganish;
- ✓ O'zbekistonda Oliy Majlisning shakllanish jarayoni tarixini yoritish;
- ✓ Parlament tuzilishi va vakolatlarini tahlil qilish;
- ✓ Bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tilishi jarayonlarini yoritish;
- ✓ Parlamentdagi fraksiyalar faoliyati, yutuq va kamchiliklarini aniqlash;
- ✓ Qonun chiqaruvchi hokimiyatining takomillashuvi borasida olib borilgan islohotlarni tahlil qilish;
- ✓ Mavzuni kasb-hunar kollejlari va Akademik litseylarda o'qitishning ta'lim texnologiyalarini tayyorlash.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ob'ekti** – O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyat.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining predmeti.** Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilish va o'rganish.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy metodologik asoslari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning davlatchilik tarixi, davlat hokimiyati va boshqaruvi, fuqarolik jamiyati mavzulariga doir fundamental fikrlari tashkil qiladi. Tadqiqot usullarini ilmiy metodlar, jumladan, analiz, sintez, mantiqiy, qiyosiy, tarixiy, tizimli va statistik kabi metodlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlari, Qonunchilik palatasi faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar bitiruv malakaviy ishining huquqiy asosini tashkil etdi.

**Mavzuning amaliy ahamiyati.** Ushbu bitiruv malakaviy ishidan “O'zbekistonning eng yangi tarixi”, “Davlat hokimiyat vakillik organlari”, “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanlarini o'rganishda hamda mazkur mavzu yuzasidan kurs ishi, mustaqil ishlar yozishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va tuzilishi.** BMI Kirish, sakkizta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, ilovalar, glossariy va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# I BOB. O'ZBEKISTONDA OLIY DAVLAT VAKILLIK ORGANI – QONUN CHIQUYUVCHI HOKIMIYATNING SHAKLLANISHI

## 1.1 Qonun chiqaruvchi hokimiyat shakllanishining huquqiy asoslari

O'z kelajagi va taraqqiyoti haqida qayg'uradigan har qanday adolatli davlat, albatta, davlat boshqaruvi va davlat hokimiyatini tashkil etishda demokratiya qonun-qoidalari va tamoyillariga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishgach, o'z oldiga huquqiy, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etishni maqsad qilib qo'ydi va davlat boshqaruvida demokratiya yo'lini tanlab oldi. Bu maqsad yo'lida esa O'zbekiston keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Bu islohotlarni markazida davlat hokimiyatini tashkil etish sohasi dolzarb masala sifatida ko'tarildi. Qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlamasdan turib, demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish haqida so'z yuritishga hech qanday asos qolmaydi.

Prezident Islom Karimov “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” asarida yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini quyidagicha ta'riflaydi: “Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, jamiyatning siyosiy tizimini tubdan yaxshilash, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo'yish, adolatli va insonparvar qonunchilikni vujudga keltirish lozim bo'ladi”<sup>1</sup>.

Siyosiy hayotni tubdan o'zgartirish ishlarining ko'lamini anglash uchun Sobiq Ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan qanday siyosiy meros qolganini yana bir karra eslash zarur bo'ladi.

1924-yilda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida O'zSSR tashkil topdi<sup>2</sup>. O'zSSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi O'zSSR tashkil topgan va

<sup>1</sup> Karimov I. A. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992. – 16-б.

<sup>2</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: “Шарқ”, 2000. – 146-б.

shakllangan davrda paydo bo'lgan davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlarining tizimi va tarkibiy tuzilishini mustahkamlab berdi. 1927-yilgi Konstitutsiyaga binoan O'zSSR Sovetlarining se'zdlari, MIK, MIK Rayosati va XKS O'zSSRning qonun chiqaruvchi organlari edi. 1927-yilgi Konstitutsiya “ochiq ovoz beriladigan unchalik umumiy bo'lmagan, unchalik teng bo'lmagan, ko'p pog'onali va bilvosita saylov huquqini” belgilab qo'ygan<sup>1</sup>.

Oliy Sovet faoliyatini 1978-yilgi Konstitutsiya yuzasidan tahlil qilsak ham O'zbekiston qonun chiqaruvchi oliy hokimiyat organi hamon davlat qurilishining eng muhim masalalarini hal eta olmas edi. Butun Sobiq Ittifoq davrida qonun chiqaruvchi hokimiyat faqat bajaruvchilik vazifasi bilan faoliyat olib bordi. Qonun chiqaruvchi organ Konstitutsiyada belgilangandek o'z vakolatlaridan foydalanib faoliyat yurita olmas edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach bunday cheklovlarning bari ortda qoldi. 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi”gi qonunning 5-moddasida shunday deyiladi: “O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir. O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarning tizimi hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida quriladi”<sup>2</sup>. Bu, ilk bora, butun dunyo tomonidan e'tirof etilgan va tan olingan, demokratiyaga xos bo'lgan davlat hokimiyat bo'linish prinsipini O'zbekistonda ham joriy etilishi edi. Keyinchalik, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida ham bu tizim quyidagicha belgilandi: - “O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi”<sup>3</sup>.

Huquqiy asoslar yaratilgach, O'zbekiston qonun chiqaruvchi oliy davlat vakillik organi – parlamentni shakllantirishga qaratilgan bir qator islohotlarni

---

<sup>1</sup> Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. –74-б.

<sup>2</sup> “Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисидаги”ги 1991-йил 31-август қонуни. 5-модда

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992. – 11-модда,

amalga oshirdi. Mustaqillikni endi qo'lga kiritgan paytda, 1990-yil 18-fevral va 4-mart kunlarida o'tkazilgan saylov natijalariga ko'ra saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Oliy Kengash faoliyat yuritardi. Amaldagi, ya'ni Sobiq Ittifoqdan meros bo'lib qolgan qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Kengash bir palatali parlament edi.<sup>1</sup> Mustaqillikka erishgach, Oliy Kengash tarqatib yuborilmadi, balki u o'z faoliyatini yana davom ettirdi. Bu borada O'zbekiston "Kechuvda otlar alishtirilmaydi", - degan naqlga amal qildi.

Totalitar tuzumdan chiqqan jamiyat respublika tuzumiga ega bo'lgan huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat qurishga kirishdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek, "Biz ozodlikka erishgan ilk kunimizdan boshlab, o'z milliy davlatchiligimizni tiklashga kirishgan dastlabki paytdayoq niyat va muddaolarimizni butun dunyoga ochiq-oydin ma'lum qilganmiz: maqsadimiz aniq – O'zbekistonda huquqiy, demokratik davlat qurish... Eng muhim gap shuki, boshlagan barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi bitta – adolatli jamiyat barpo etish"<sup>2</sup>.

Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yaratilishi ular faoliyatining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu bois O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dastlabki e'tiborni davlat hokimiyati vakillik organlari tizimidagi organlar va ular faoliyatini huquqiy asoslarini yaratishga qaratdi.

Oliy Kengashning XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida 1990-yil 20-iyunda "Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilindi va u davlat boshqaruvida asosiy qonun vazifasini bajarishi belgilandi. Bu Deklaratsiya kelgusida qabul qilinadigan Konstitutsiyaga tamal toshini qo'ydi. Oliy Kengashning 1992-yil 8-dekabrda bo'lgan XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaning V bo'limi davlat hokimiyatini tashkil etish masalalariga bag'ishlanadi. Shu bo'limning birinchi bobi, Konstitutsiyaning XVIII bobi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirishga bag'ishlangan va uning 76-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Oliy davlat

<sup>1</sup> Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Т.: "Шарқ", 2000. – 77-б.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Адолат, Ватан ва халқ манфаати ҳар нарсадан улуғ. – Т.: "Ўзбекистон", 1998. – 51-б.



vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi"<sup>1</sup>, – deb mustahkamlandi. Yangi qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis ham bir palatali parlament sifatida tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

Davlat hokimiyatining oliy vakillik organi – Oliy Majlis shakllanishining qonunchilik asoslarini yaratish masalasi eng muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Shuning uchun “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasida Oliy Kengash Rayosati zimmasiga 1993-yil davomida Oliy Majlisga saylov to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilish vazifasi yuklatildi<sup>2</sup>. Ayni shu topshiriqqa muvofiq, Oliy Kengash Rayosati 1993-yil 3-martdagi Qarori bilan “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida”gi Qonun loyihasini tayyorlash uchun 12 nafar kishidan iborat tarkibda ishchi guruh tuzdi<sup>3</sup>.

Shu tariqa, ishchi guruhi rahbari axborotining muhokamasi natijalari bo'yicha deputatlar o'n ikkinchi sessiyada “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida”gi Qonun loyihasini tayyorlashni tashkil etish haqidagi Oliy Kengashning qarorini qabul qildilar<sup>4</sup>. Mazkur huquqiy islohotlar hamda Konstitutsiya qabul qilingandan so'ng qonun ishlab chiqishdagi mantiqiy ketma-ketlikni ta'minlagan holda, 1993-yil 28-dekabrda Oliy Kengashning XIV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida» qonun, 1994-yil 22-sentabrda esa, XVI sessiyada «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida» maxsus qonun qabul qilindi<sup>5</sup>. Bular demokratik tamoyillarga asoslangan hokimiyat bo'linishining eng xalqchil va zamonaviy shakllari hisoblanadi. Ayni paytda bu sohada tub islohotlarni amalga oshirish zarurati borligini ham ko'rsatadi.

Navbatdagi saylov yuzasidan bir qator islohotlar o'kazilgan bo'lsa-da, qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis bir palatali parlament sifatida shakllantirilishi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992. – 23-б.

<sup>2</sup> Халилов Э. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – 87-б.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1993. № 3. 28-29-б.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси. 1993. № 6. 176-б.

<sup>5</sup> www.lex.uz

ko'zda tutilgan edi. 1995-yil 23-24-fevral kunlari Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiya qarori bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) instituti joriy rtildi va vakil huzurida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi komissiyasini tuzish haqida qaror qabul qildi. Birinchi sessiyada "O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Oliy Majlis Raisi rahbarligida "Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi<sup>1</sup>. Oliy Majlis birinchi sessiyasida qabul qilingan qonunlar va qarorlar parlament faoliyatini zamon talablari darajasida tashkil etish, uning ishini tashkiliy jihatdan puxta uyushtirish imkonini berdi.

1994 va 1999-yillarda o'tkazilgan parlament saylovlari ham bir palatali parlamentni shakllantirish uchun tashkil etildi. Lekin vaqt o'tgan sayin doimiy asosda ishlaydigan, ikki palatali professional parlamentni shakllantirish uchun sharoit yaratila boshladi. Prezident I.A.Karimov 2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi. "Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o'zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi o'zgarishi bilan bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmoqchiman. Ya'ni, biz 2004-yilda bo'ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim"<sup>2</sup>. Bu demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g'oyadir. 2001-yil 6-7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar,

---

<sup>1</sup> [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>2</sup> Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиздир. – Т.: "Ўзбекистон", 2000. – 483-б.

iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilganligini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasini ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga keldi.

Demokratiya qonun-qoidalariga muvofiq mazkur masala yuzasidan xalqning fikr-mulohazasi o'rganilishi lozim edi. Oliy Majlisning yettinchi sessiyasi 2002-yil 27-yanvar kuni kelgusi chaqiriqda ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasini referendumini o'tkazish bo'yicha qaror qabul qildi. Referendumda "Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?" degan savol bilan saylovchilarga murojaat qilindi. Referendumda qatnashganlarning 11.344.242 nafari yoki 93,65 foizi yoqlab ovoz berdi<sup>1</sup>. Saylovchilar ikki palatali parlament tuzish masalasini qo'llab-quvvatladilar. Referendum yakunlari xalqimizning, bir tomondan, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iborat O'zbekiston yo'lini qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatdi. Ikkinchi tomondan, islohotlarni izchil va qat'iylik bilan davom ettirish va yanada chuqurlashtirishni katta umid bilan kutayotganligini bildirdi.

2002-yil 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonun va "2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida" Qaror qabul qildi. Bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi<sup>2</sup>.

Mazkur qonun va qarorlar qabul qilingach, islohotlarni yanada chuqurroq olib borish va ikki palatali parlamentga asos solishga sharoit yaratish maqsadida qonunlarni qabul qilish ketma-ketligi mazmunan davom ettirilib, 2002-yil 12-dekabr kuni Oliy Majlisning o'ninchi sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси Ахборотномаси. – Т.: "Шарқ", 2002. - № 1(5). - 35-б.

<sup>2</sup> Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т. Икки палатали парламент. – Т.: "Академия", 2005 й. – 18-б.

Majlisining Senati to'g'risida” va “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi hamda bu qonunlarni amalga kiritish to'g'risida qarorlar qabul qilindi<sup>1</sup>. Mazkur qonunlarning qabul qilinishi parlament sohasidagi yangi islohotlarga huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi nazarda tutildi.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonun 38 ta moddadan iborat bo'lib, uning birinchi moddasida “ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) maqomini belgilash, Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etishga va uning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (bundan buyon matnda Senat deb yuritiladi) hamda boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorligiga doir munosabatlarni tartibga solishdan iborat”<sup>2</sup>, deyiladi.

Shuningdek, 2003-yil 24-aprelda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar qo'shimchalar kiritish to'g'risida” Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga binoan Konstitutsiyaning parlamentga doir modda va bandlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutiladi. Yana bir qonun qabul qilindiki, bu qonun qonunchilik palatasining vakolat va vazifalarini yanada oydinlashtirib berdi. Mazkur qonun 2003-yil 29-avgustda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida”gi qonun hioblanadi. Qonunning birinchi moddasida “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonunlarga, shuningdek, Qonunchilik palatasi tomonidan o'z faoliyatini tashkil etish hamda

---

<sup>1</sup> Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т. “Икки палатали парламент”. – Т.: “Академия”, 2005 й. – 23-б.

<sup>2</sup> “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги Конституциявий Қонун. 1-модда. 2002 й.

palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladigan ushbu qonunga muvofiq tashkil etiladi<sup>1</sup>.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat amalda hech qanday kuchga ega emas edi. Mustaqillikka erishgach esa bularning bari ortda qolib, O'zbekiston o'z yo'lini o'zi tanlaydigan va belgilaydigan bo'ldi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to'plangan parlamentarizm tajribasi, O'zbekiston xalqining qadriyatlari va mentalitetini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan mazkur qonunlar bo'lg'usi parlamentimiz ikkala palatasi vakolatlarini va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

## **1.2 O'zbekistonda Oliy Majlisning shakllanish jarayoni tarixi**

Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat mamlakatning har jihatdan rivojlanishi, huquqiy, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladigan qonunlar ishlab chiqishda o'z faolligini ko'rsatib kelmoqda. Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan milliy parlamentimiz, ya'ni ikki palatali Oliy Majlis shakllangunga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mustaqillikka erishgan dastlabki yillarimizda 1990-yil 18-fevral va 4-martda saylangan bir palatali parlament – Oliy Kengash qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirardi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan bordi. Ya'ni, faoliyat yuritayotgan Oliy Kengash – eski parlamentni darhol tarqatib yubormadi. Oliy kengash 1990-1994-yillar mobaynida faoliyat olib bordi. Oliy Kengashning bu davri milliy parlamentimiz shakllanishining birinchi bosqichi hisoblanadi. Bu davr O'zbekiston milly parlament tizimi shakllanishining birinchi bosqichi sifatida tarixga aylandi. Besh yillik faoliyati davrida o'n olti marta sessiya o'tkazgan Oliy Kengash 200 ga yaqin

---

<sup>1</sup> “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги қонун. 2003 й. 1-модда // Халқ сўзи. 2003-дек.

qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi<sup>1</sup>. Mustaqillik Deklaratsiyasi, Asosiy qonun – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kabi qonunlar shular jumlasidandir. Oliy Kengash mamlakatimiz tarixida ilk marotaba O'zbekiston Prezidentini sayladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, bir palatali parlament – Oliy Majlisni shakllantirishga kirishildi. 1993-yil 8-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida», 1994-yil 22-sentabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonunlar qabul qilindi. Ularda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'ladi, deb belgilab qo'yildi<sup>2</sup>.

Mazkur qonunlarda Oliy Majlisga saylanish huquqiga saylov kuni 25 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari egadirlar, bunda ularning kelib chiqishi, ijtimoiy va moddiy ahvoli, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, faoliyat turi bo'yicha hech qanday cheklanishlarga yo'l qo'yilmasligi qayd etilgan. Shu bilan birga, sudlangan, saylov tayinlangan kungacha o'tgan 5 yil mobaynida O'zbekiston hududida muqim yashamagan, harbiy ixtisosli, diniy xizmatchi fuqarolar deputatlikka nomzodlar ro'yxatiga olinmaydilar, deb belgilab qo'yildi. Mazkur qoidalardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994-yil sentabrda bo'lib o'tgan o'n oltinchi sessiyasi 1994-yil 25-dekabr kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar, tuman Kengashlariga saylov o'tkazishga qaror qildi. Markaziy saylov komissiyasi dekabr oyida ilk marotaba o'tkaziladigan Oliy Majlis saylovlari uchun 250 ta okrug va 7192 ta uchastka saylov komissiyasini o'z vaqtida tuzdi. Markaziy saylov komissiyasi 643 nafar deputatlikka nomzodni, shu jumladan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan – 243, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan – 141 va hokimiyat vakillik organlaridan 250 nafar nomzodni ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qildi. Saylovlarda jami 11 million 248 ming 464 saylovchidan 10

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. 3-том. – Т.: “Шарқ”, 2000. – 77-б.

<sup>2</sup> Усмонов Қ. Ўзбекистонда парламент тараққийотининг янги босқичи. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 2004. 5-б.

million 526 ming 645 saylovchi, ya'ni barcha saylovchilarning 93,6 foizi ishtirok etdi. "1995-yilning 8-yanvarida 39 saylov okrugida, 1995-yilning 22-yanvarida 7 saylov okrugida takroriy saylovlar o'tkazildi"<sup>1</sup>. Nomzod deputatlar soni ortganligi saylovchilarning munosib deputatlarni tanlashi uchun imkoniyatini kengaytirdi. Saylov to'grisidagi qonun hujjatlarining huquqiy normalari saylov kampaniyasining keng oshkoraligini, nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlarni ta'minlash imkonini berdi. Shu tariqa, mamlakatimizda ilk bor yangi parlamentga bo'lgan saylovlar muvaffaqiyatli yakunlandi. Mazkur saylov demokratik yo'l bilan parlamentni shakllantirishning mamlakatimiz tarixidagi dastlabki tajribasi bo'ldi.

Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'zining shakllanishi, o'z faoliyatini tashkil etish tartibotlari, ish yuritish mazmun-mohiyatiga ko'ra, yangi, zamonaviy parlament bo'lib, avvalgi qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Kengashdan butunlay farq qilardi.

Birinchi farq shundaki, avval ko'rganimizdek, Oliy Majlisga saylov ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazildi. Har bir saylov okrugida 2-3 nomzod deputatlik uchun kurashdi. Saylovchilarga amalda ana shu nomzodlardan tanlab olish huquqi berildi. Shunday ko'ppartiyaviylik tamoyili Oliy Majlis ishida ham joriy etildi.

Ikkinchidan, Oliy Majlisga, mahalliy hokimiyat vakillik organlariga saylovlarni tashkil etishda sinfiy yondashuv nodemokratik tamoyil sifatida rad etildi. Avvalgi saylovlarda Oliy Kengashni shakllantirish jarayonida ishchilar sinfi, kolxozchi dehqonlar, xalq ziyolilarining o'рни va soni oldindan belgilab qo'yilar edi. Oliy Majlis deputatlari esa turli partiya va harakatlarning vakillaridan iborat nomzodlar orasidan muqobillik asosida saylandi.

Uchinchidan, parlamentning kuchi deputatlarning o'z saylovchilari bilan kundalik munosabatida, yaqin muloqotida ekanligidan kelib chiqib, Oliy Majlis saylovchilar bilan uzviy aloqada bo'ldi. Avvalgi Parlamentda bu masalaga unchalik e'tibor berilmas edi.

---

<sup>1</sup> Файзиёв М. Сайлов тизими. Ўзбекистон Республикаси: Энсиклопедия. – Т.: "Ўзбекистон", 1997. – 196-198-б.

Ilk marotaba Oliy Majlisni shakllantirish uchun o'tkazilgan saylovlardan so'ng, 1995-yil 23-24-fevral kunlari Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi va rasman ilk bora saylangan Oliy Majlis o'z faoliyatini boshladi. Sessiyada I.A.Karimov "O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" to'g'risida keng qamrovli ma'ruza qildi. "Vakillik hokimiyatini vujudga keltirishning jahondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi. O'zbekiston Parlamenti – Oliy Majlis ilk marta ko'ppartiyaviylik asosida saylandi<sup>1</sup>", - dedi Prezident I.Karimov. Sessiyada parlamentchilikning demokratik asoslarini yanada rivojlantirishga e'tibor berilib, rahbariyat kengaytirilib Rais va to'rt kishidan iborat Rais o'rinbosarlari saylandi. E.X.Xalilov yakdillik bilan Oliy Majlis raisi, B.I.Bugrov, B.A.Shodiyeva, A.Q.Qosimovlar ham bir ovozdan Rais o'rinbosarlari qilib saylandilar<sup>2</sup>.

Ko'ppartiyalilik tamoyili asosida tashkil topganligi va shu tamoyil asosida faoliyat ko'rsatayotganligi Oliy Majlisning jamiyat taraqqiyoti keyingi bosqichidagi o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Birinchi sessiyada O'zbekiston Parlamenti hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasini, 14 deputat ishtirokidagi "Vatan taraqqiyoti" partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi<sup>3</sup>. Oliy Majlisga o'tkazilgan dastlabki saylov shuni ko'rsatib turibdiki, hokimiyat vakillik organlaridan ko'rsatilgan nomzodlar parlamentda ko'p o'rinni egallashgan.

Oliy Majlisning dastlabki besh yillik faoliyatini tahlil qilib uni samarali o'tdi deyishga to'la asosimiz bor. Boisi, 1995-1999-yillar mobaynida Oliy Majlis 15 ta sessiya o'tkazdi va ularda 145 ta qonun, 468 ta qaror, 10 ta kodeks va 2 ta milliy dastur qabul qildi va amaldagi qonunlarga jami 216 ta qo'shimcha va

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг тамойиллари. –Т.: "Ўзбекистон", 1995. – 6-б.

<sup>2</sup> [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

<sup>3</sup> O'sha joyda



o'zgartirishlar kiritdi<sup>1</sup>. Shuningdek, Oliy Majlis 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi (tasdiqladi), xalqaro Konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi<sup>2</sup>. Bu ishlar natijasida jamiyatimizning huquqiy sohalari yanada kengaydi hamda qonun va huquqiy hujjatlar bilan boyib bordi.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 19-20 avgust kulari bo'lib o'tgan o'n beshinchi sessiyasi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylovini 1999-yil 5-dekabr kuniga belgilash to'g'risida qaror qabul qildi<sup>3</sup>. 1999-yil 5-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar mamlakat siyosiy hayotida muhim voqeaga aylanib, jamiyatimizni demokratlashtirish yo'lidagi muhim bosqich bo'ldi. Saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 95,03 foizi ovoz berishda ishtirok etdilar. 5-dekabr kuni bo'lgan saylovlarda nomzodlardan birortasi ham yetarli ovoz ololmagan 66 ta saylov okrugida 19-dekabr kuni takroriy saylov tashkil etildi. Saylovlar aholining faol ishtiroki va yuqori siyosiy ko'tarinkilik bilan o'tdi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar birinchi chaqiriqqa nisbatan faolroq bo'ldi. Ilgari deputatlikka uchta sub'ekt nomzod ko'rsatgan bo'lsa, bu safar saylovda 7 ta sub'ekt — beshta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami 1010 nafar nomzod ro'yxatga olindi. Qizg'in siyosiy kurash asosida o'tgan saylovlarda 250 nafar deputat saylandi.

*1-ilova*

### **1999-yil parlament saylovlari natijasi haqida ma'lumot**

<b>Saylov ishtirokchilari</b>	<b>Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar soni</b>
“Adolat” sotsial demokratik partiyasi	11
Milliy tiklanish demokratik partiyasi	10
“Vatan taraqqiyoti” partiyasi	20
“Fidokorlar” milliy semokratik partiyasi	34

<sup>1</sup> Ўзбекистонда жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш ёълида. – Т.: “Академия”, 2005. – 29-б.

<sup>2</sup> Усмонов Қ. Ўзбекистонда парламент тараққиётининг янги босқичи. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 2004. – 6-б.

<sup>3</sup> Халқ сўзи, 1999-йил 21-август.

Xalq demokratik partiyasi	48
Hokimiyat vakillik organlari	111
Tashabbuskor guruhlar	16

Mazkur yakuniga yetgan saylovlar haqida prezident I.A.Karimov shunday deydi: “Yurtimizda ko’ppartiyaviylik va muqobilik asosida bo’lib o’tgan saylovlar xalqimizning jamiyatni demokratlashtirish va yangilash borasida o’tkazilayotgan islohotlarni izchil rivojlantirish va yanada chuqurlashtirishga qaratilgan xohish-istagini yana bir bor namoyon etdi”<sup>1</sup>.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibiga qaraganda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibida xilma-xillik, fraksiyalar sonini ortganligi Oliy Majlis faoliyatining yanada qizg’in o’tishi, xilma-xil fikrlar, qonunlarni yanada mukammal tayyorlanishi uchun imkoniyatlarni kengaytirardi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ham bir palatali parlament sifatida shakllantirildi.

Mustaqillik yillarida bir palatali parlament huquqiy, demokratik davlat tuzish va fuqarolik jamiyati barpo etishning huquqiy asoslarini yaratuvchi 446 dan ortiq qonun, 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur va mingdan ortiq qarorlar qabul qildi<sup>2</sup>. Qabul qilingan qonunlarni mazmuniga ko’ra besh yo’nalishga bo’lish mumkin. Birinchi yo’nalish – O’zbekistonning Davlat mustaqilligini mustahkamlash, demokratik huquqiy davlat asoslarini yaratish, davlat boshqaruv tizimini yangilashga doir qonunlar. Ikkinchi yo’nalish – inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalariga doir qonunlar. Uchinchi yo’nalish – ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o’tish, bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilik, xo’jalik yuritishning yangi shaklini yaratishga doir g’oyat faol rivojlanib borayotgan qonunlar. To’rtinch yo’nalish – odamlarning ma’naviy, ijodiy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga, madaniyat, ta’lim va sog’liqni saqlash muammolariga, aholini ijtimoiy himoyalash masalalariga doir qonunlar. Beshinchi yo’nalish –

<sup>1</sup> Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000. – 364-б.

O'zbekistonning xalqaro munosabatlariga, tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatiga, chet ellik sarmoyadorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilishga doir qonunlar.

Ko'rinib turibdiki, parlamentning 1995-2004-yillardagi faoliyati samarali o'tgan. Bu yillar milliy parlamentimiz rivojlanishining ikkinchi bosqichi hisoblanadi.

Prezident Islom Karimov 2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida qilgan «O'zgarish va yangilanish - hayot talabi» nomli ma'ruzasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (2005) 76-moddasida yozilishicha, “O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, Qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil”<sup>2</sup>.

2004-yil 15-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanishini e'lon qilish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi<sup>3</sup>. Unga ko'ra ikki palatali parlamentga saylov 2004-yilning 26-dekabr kuniga belgilandi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasini nihoyatda faol tashkil etdi. Qonunchilik palatasiga saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish maqsadida 120 ta okrug saylov komissiyasi va 8088 ta uchastka saylov komissiyasi tuzildi.

Ikki palatali parlamentga o'tkazilgan saylovlar xorijiy mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. Endi O'zbekistonda ham dunyodagi aksariyat demokratik davlatlarda bo'lgan ikki palatali parlament shakllantirildi. Ikki palatali parlamentning dastlabki chaqirig'ida Qonunchilik palatasiga hududiy bir mandatli

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзгариш ва янгилашни ҳаёт талаби. 2000. 7-б.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2005.

<sup>3</sup> Халқ сўзи. – 2004. – 16-сент.

saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 120 nafar deputat saylandi. 2005-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi majlisda E.H.Xalilov Qonunchilik palatasining Spikeri etib saylandi. Aynan 2005-yildan boshlangan parlament faoliyati milliy parlamentimiz rivojlanishining uchinchi bosqichi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi. Qonunchilik palatasi butun mamlakat aholisi vakilligini ta'min etadi, ularning manfaatlarini inobatga oladi. Qonunchilik palatasi deputatining asosiy faoliyati xalq manfaatlari va mamalakat taraqqiyotidan kelib chiqqan hamda jamiyat mentaliteti uchun mos holda qonun loyihalarini ishlab chiqish deb belgilansa-da, u o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin, lekin boshqa haq to'lanadigan sohalarda faoliyat olib borishi qonunan ta'qiqlanadi.

Parlamentning ikki palatali qilib shakllantirish mamlakatda qonun ijodkorligini yanada oshirdi va mamalakat huquqiy sohasi yangi qonunlar bilan boyidi. 2005-2009-yillarda faoliyat yuritgan ikki palatali Oliy Majlis mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantiruvchi 250 dan ortiq qonunlar qabul qildi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga 2009-yil 27-dekabr kuni saylovlar–2010-yil 10-yanvar kuni takroriy saylovlar o'tkazildi. Qonunchilik palatasida 135 deputat, O'zbekiston Ekologik harakatining konferensiyasida 15 nafar deputat, jami 150 nafar deputat saylandi<sup>2</sup>. 2010-yil 22-yanvar kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisida Dilorom Toshmammedova Qonunchilik palatasi Spikeri etib saylandi. Mazkur chaqiriq vakolati tugagach, 2013-yil dekabr oyida navbatdagi parlament saylovlari o'tkaziladi.

Umuman, O'zbekistonda saylov qonunchiligi, ya'ni parlament taraqqiyoti 4 bosqichni bosib o'tdi: 1-bosqich Konstitutsiyamiz qabul qilungunga qadar davr bo'lib, bu davrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi va Referendum to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. 2-bosqich Konstitutsiyamiz qabul

---

<sup>1</sup> Халқ сўзи, 2010- йил, 28-январ. № - 19.

<sup>2</sup> Халқ сўзи, 2010- йил, январ.

qilingandan to 1997-yilgacha davom etdi. Bu davrda “saylov tizimi” shakllantirildi. 3-bosqich 1997-yildan – 2003 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda amaldagi saylov qonunlariga ayrim o‘zgartirishlar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. 4-bosqich 2003-yildan – 2005-yilgacha, bu davrda ikki palatali parlamentni shakllantirish bilan bog‘liq saylov qonunlariga o‘zgartirishlar kiritildi va 2004-yil 26-dekabrda Oliy Majlis quyidagi qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazildi.

Xuddi shunday jarayonlar bilan parlament shakllanish jarayoni bugungi professional darajaga yetib keldi. Bu borada O‘zbekiston taraqqiyotning “o‘zbek modeli”da bo‘lgani singari rivojlanishning tadrijiy yo‘lini tanlab oldi.

### **1.3 Parlament tuzilishi va vakolatlari**

Parlament – demokratik davlatlardagi vakillik organlari bo‘lib, qonun chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Bugungi kunda parlament demokratik davlatlarning asosiy yutuqi sifatida e‘tirof etilsa-da, uning tarixi asrlar bilan o‘lchanadi. Parlament so‘zining ma‘nosi, fransuz tilidan tarjima qilganda “gapirmoq” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rasmiy so‘zlashish joyi degan ma‘noni anglatadi. Parlament Angliyada 1215-yil 15-iyunda qabul qilingan “Erkinlikning Buyuk Xartiyasi” dan boshlanadi. 1265-yilda mamlakatda ilk bora parlament joriy etildi. Parlament 1295- yildan boshlab (qirol Eduard I davrida) muntazam chaqirilib turiladigan bo‘ldi. 1297- yilda parlament soliqlarni tasdiqlash huquqini qo‘lga kiritdi. XIV asrdan boshlab parlamentga qonun chiqarish huquqi ham berilgan. Bundan tashqari, parlament vazirlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar bo‘yicha Oliy sud vazifasini ham bajara boshlagan. 1343- yildan ikki palataga bo‘lingan<sup>1</sup>.

Garchi birinchi mingyillikning chegarasida Qadimgi Rim, Yunoniston shaharlarida xalq majlislari ishlab turgan bo‘lsa-da, unda parlamentning dastlabki elementlari sezilib tursa-da, va hatto hanuzgacha islandiyaliklar “aslida

---

<sup>1</sup> Алимов Р.М. Парламентаризм: хорижий мамлакатлар тажрибаси. – Т.: Шарк, 2002. – 20-б.

parlamentga IX asrda biz asos solganmiz”, deb qat’iy fikr bildirishsa-da, har bir siyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta olgan Angliya parlamenti mumtoz parlament sifatida tan olinadi hamda Angliya parlamenti parlament rivojlanishining ikkinchi bosqichi sifatida e’tirof etiladi. Parlament taraqqiyotining uchinchi bosqichi XVII asr oxiridan boshlab XVIII asr oxirlarigacha bo’lgan davr bilan bog’liq, to’rtinchi bosqich esa XIX asrni o’z ichiga oladi. Parlament rivojlanishining beshinchi bosqichi XX asrga to’g’ri keladi va parlament ahamiyatining o’sishi bilan xarakterlanadi<sup>1</sup>.

Parlamentda faoliyat yuritadigan deputatlar xalq tomonidan saylanadi va ularning manfaatlarini himoya qiladi. Parlament boshqa davlat organlarini shakllantirishda, davlatning oliy mansabdor shaxslarini tayinlashda qatnashadi – bu ishlarni yo o’zi bajaradi, yoki tegishli nomzodlar bilan kelishib oladi. Parlament davlat qonunlari ijrosi ustida, ijroiya hokimiyat organlarining faoliyati ustidan Parlament nazoratini amalga oshiradi. Parlament aholi turli qatlamlari va guruhlarini, davlat mintaqalarini jipslashtiruvchi organ bo’lib xizmat qiladi.

Parlament turli mamlakatlarda turlicha nomlar bilan atalib keladi. Bunda ular ko’proq o’z tarixlari, urf-odatlari va milliyliklariga e’tibor qaratishadi. Masalan: AQSh va Lotin Amerikasi mamlakatlarida Kongress, Buyuk Britaniyada Parlament, Xitoyda Xalq vakillari Buykxitoy majlisi, Polshada Seym, Ispaniyada Kortes, Shvetsiyada Riskdag, Germaniyada Bundestag, Norvegiyada Starting, Misrda Xalq Assambleyasi, Isroilda Knesset, Finlyandiyada Eduskunt, Islandiyada Alting, Afg’onistonda Jihod Kengashi va O’zbekistonda Oliy Majlis deb ataladi<sup>2</sup>. O’zbekistonda bir palatali parlament faoliyat yuritganda ham uning nomi Oliy Majlis edi. Mana islohotlar natijasida tashkil etilgan ikki palatali parlament ham Oliy Majlis deb atalmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida yozilishicha, “O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo’lib, Qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O’zbekiston Respublikasi Oliy

---

<sup>1</sup> Алимов Р.М. Парламентаризм: хорижий мамлакатлар тажрибаси. – Т.: Шарқ, 2002. – 20-б.

<sup>2</sup> Усмонов Қ. Ўзбекистонда парламент таракқиётининг янги босқичи. – Т.: “Ғафур Фулом”, 2004. – 14-б.

Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil”<sup>1</sup>. Bosh qomusimiz – Konstitutsiyadan kelib chiqqan holda, Oliy Majlis faoliyati va tashkiliy masalalariga bag'ishlangan qonunlarda ham bu masalaga yana bir karra to'xtalib o'tiladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi qonunning 2-moddasida yanada batafsilroq to'xtalib, “Qonunchilik palatasi (quyi palata) bir yuz ellik deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining bir yuz o'ttiz besh deputati hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Qonunchilik palatasining o'n besh deputati O'zbekiston ekologik harakatidan saylanadi. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi”<sup>2</sup>, – deb belgilanadi.

Senat hududiy vakillik palatasi bo'lib, yuz nafar senatoridan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. Qolgan o'n olti nafar senator Prezident tomonidan fan, san'at, adabiyot va ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan eng obro'li fuqarolar orasidan tayinlanadi<sup>3</sup>.

Shu o'rinda bugungi kunda faoliyatda bo'lgan Qonunchilik palatasining tarkibi xususida fikr yuritsak. Qonunchilik palatasining rahbari Spiker hisoblanadi. Spiker saylovdan keyingi birinchi majlisda Qonunchilik palatasining deputatlari orasidan yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Spiker O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi. Spiker Qonunchilik

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т., 2005.

<sup>2</sup> “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги конституциявий қонун. 2002, 2-модда. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>3</sup> “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 77-модда, 2011.

palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Spiker o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi.

Deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Spiker o'rinbosarlari saylanadi. Spiker va uning o'rinbosarlari o'z vazifalarini bajarish davrida siyosiy partiyaga a'zolikni to'xtatib turadi hamda fraksiya va boshqa deputatlar birlashmasi tarkibiga kirishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasida palata faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Qonunchilik palatasi Kengashi tuziladi. Qonunchilik palatasi Kengashi palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab to'planadi. Qonunchilik palatasi Kengashining tarkibiga Qonunchilik palatasi Spikeri, uning o'rinbosarlari, fraksiyalar va deputatlar guruhlarining rahbarlari, Qonunchilik palatasi qo'mitalarining raislari kiradi. Qonunchilik palatasi Kengashi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi<sup>1</sup>.

Qonunchilik palatasi tarkibiga yana Qonunchilik palatasi qo'mitalari ham kiradi. “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonunning 17-moddasida qo'mitalarni saylash tartibi belgilab berilgan. Unga ko'ra, qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga palata deputatlari orasidan rais, uning o'rinbosarlari va a'zolaridan iborat tarkibda qo'mitalar saylanadi<sup>2</sup>.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari Qonunchilik palatasi oldida mas'ul va unga hisobdordir. Palata qo'mitalari ishni o'z rejalariga, shuningdek, Qonunchilik palatasi, uning Spikeri va Kengashi topshiriqlari hamda tavsiyalariga muvofiq tashkil etadi. Qo'mitalar o'z faoliyatiga kiradigan vazifalar yuzasidan majlislar

---

<sup>1</sup> [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

<sup>2</sup> “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги конституциявий қонун. 17-модда, 2002-й. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)



o'tkazadi. Qo'mitalarning majlislari palata majlislari oralig'ida zaruratga qarab o'tkaziladi va ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qiladi. Qonunchilik palatasi qo'mitalari davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda qo'mitalarning qarorlari ular tomonidan qanday bajarilayotganligi haqidagi axborotini eshitadi.

Palatalarda muayyan bir soha bo'yicha bir necha qo'mitalar tuziladi. Oliy Majlis tarixida qo'mitalarning turli chaqiriqlarda ma'lum darajada bir-biridan farq qilganini ko'rish mumkin. Birinchi chaqiriqda qonunlar ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda, quyidagi 12 ta qo'mita tuzildi: Budjet, bank va moliyaviy masalalar bo'yicha; Iqtisodiy islohotlar va ishbilarmonlikni rivojlantirish bo'yicha; Qonunchilik va sud-huquq masalalari bo'yicha; Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar bo'yicha; Fan, ta'lim, madaniyat va sport bo'yicha; Sanoat, energetika, transport, aloqa va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha; Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat bo'yicha; Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha; Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha; Qurilish va uy-joy xo'jaligi bo'yicha; Matbuot va axborot bo'yicha; Mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha<sup>1</sup>.

O'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning 22-moddasi palata komissiyalari tuzilishiga bag'ishlanadi. Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar orasidan komissiyalar tuzishi mumkin. Komissiyalar o'z faoliyati zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilganidan keyin tugatiladi. Shuningdek, komissiyalar faoliyati Qonunchilik palatasining qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin<sup>2</sup>.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 22-yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi sessiyasida qo'mita va komissiyalar masalasiga yana to'xtalib o'tildi. Mazkur sessiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis

---

<sup>1</sup> [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

<sup>2</sup> "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси тўғрисида"ги конституциявий қонун. 22-модда. 2002. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

qo'mitalari tuzildi. Birinchi chaqiriqdan farqli ravishda qo'mitalar soni ortdi va yangi komissiyalar tuzildi. Birinchi chaqiriqda faoliyat yuritgan "Qurilish va uy-joy xo'jaligi bo'yicha" qo'mitasi faoliyati to'xtatildi va yangi qo'mitalar – "Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" qo'mitasi hamda avvaliga "Yoshlar ishlari komissiyasi" nomi bilan faoliyat yuritgan, 2000-yil 30-31-avgust kunlari bo'lgan Oliy Majlisning uchinchi sessiyasi qarori bilan "Yoshlar ishlari qo'mitasi"ga aylantirilgan qo'mitalar tuzildi. Qolaversa, "Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta'minoti", "Oila va ayollar muammolari", "Normativ-huquqiy atamalar" komissiyalari tuzildi<sup>1</sup>.

Oliy Majlis tarkibida yangi qo'mita – "Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi"ning tuzilishi va yangi qonunlar ishlab chiqishdagi faoliyati ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashdi.

Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 11 ta qo'mita tuzilgan. Ular quyidagilar<sup>2</sup>:

- ✓ Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi
- ✓ Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi
- ✓ Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi
- ✓ Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi
- ✓ Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi
- ✓ Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi
- ✓ Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi
- ✓ Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi
- ✓ Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi
- ✓ Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi
- ✓ Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi

---

<sup>1</sup> [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

<sup>2</sup>O'sha manba.

Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli uning Qonunchilik palatasi sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislaridir. Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi majlisi saylovdan so'ng ikki oydan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi va majlisni Markaziy saylov komissiyasi raisi ochadi, Qonunchilik palatasi Spikeri saylangunga qadar unda raislik qiladi. Qonunchilik palatasi majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi. Zarurat bo'lganda, Qonunchilik palatasi yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi va yopiq majlis o'tkazishi mumkin.

Qonunchilik palatasi tuzilishi haqida gap ketganda yana bir muhim tarkibiy institut – Ombudsman haqida ma'lumot berib o'tish lozim. Ombudsman – Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili. 1995-yil 23-fevralda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili lavozimi ta'sis etildi va bu lavozimga Sayyora Rashidova saylandi. Inson huquqlari bo'yicha vakilning maqomi va faoliyat doirasi 1997-yil 26-aprelda qabul qilingan "Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) to'g'risida"gi qonun bilan belgilab berildi. Qonun 20 ta moddadan iborat bo'lib, unda ombudsman faoliyati va huquq, vakolatlari bilan bog'liq holatlar belgilab berilgan<sup>1</sup>

Shu o'rinda, Qonunchilik tashabbusi xususida fikr yuritsak. Qonunchilik tashabbusi huquqi deganda, qonun loyahasini tayyorlash va Qonunchilik palatasiga kiritish huquqi tushuniladi. Qonun loyihalari Qonunchilik palatasiga kiritiladi, Senatga kiritilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risidagi Konstitusiyaviy qonunining 27-moddasida: «Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi sub'yektlari

---

<sup>1</sup> «Инсон ҳуқуқлари бўйича вакил (омбудсман) тўғрисида»ги қонун . 1996-й., апрель. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

tomonidan qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi», deb belgilab qo'yilgan.

Har ikki palataning amalga oshirishi kerak bo'lgan vazifalari, ya'ni ularning vakolatlari qonun bilan mustahkamlab qoyilgan. Vakolatlarning taqsimlanishi nuqtayi nazaridan ham yangicha konstitutsiyaviy jarayon amalga oshiriladigan bo'ldi. Parlament vakolatlarini konstitutsiyaviy asosda uch guruhga bo'lish mumkin: Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari, Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari, Senatning vakolatlari.

Birinchi guruh vakolatlar Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 8-moddasi<sup>1</sup>da belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, har ikki palata birgalikda Bosh Qomusimiz – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalasini muhokama qiladi; O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi; O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish masalasini ham har ikki palata birgalikda muhokama qiladi. O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish, O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash borasida ham har ikki palata teng huquqqa ega.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi guruh vakolatlar Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;

---

<sup>1</sup>«Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси тўғрисида»ги Конституциявий қонун. 8-модда. 2002.

2) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;

3) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish kiradi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 79-modda).

Uchinchi guruh vakolatlariga esa, Yuqori palata Senatning vakolatlari kiradi. Senatning vakolatlari soni 14 ta bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasida belgilab berilgan.

Demak, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan ikki palatali, professional parlament nafaqat, zamon ruhiga mos va hayot talab qilayotgan qonun loyihalarini ishlab chiqish bilan, balki barcha ijtimoiy toifa manfaatlarini o'zida aks ettirgan qonun chiqaruvchi hokimiyat sifatida tarixda qolmoqda. Parlamentni ikki palatali qilib tuzilishini sababi ham ayni shunda.

Parlament palatalarining vakolatlari ular orasidagi munosabatlarni aniq va mukammal tarzda aniqlab beradi. Mazkur vakolatlarni palatalarga ishonib berilishi, bu – ularning ma'suliyati hisoblanadi.

## II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYATINING TAKOMILLASHUVI

### 2.1 Bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tilishi

Parlamentarizm tajribasi shuni ko'rsatadiki, parlament bir palatali yoki ikki palatali bo'lishi mumkin. Garchi ikki palatali parlament tizimining klassik namunasi Buyuk Britaniya hisoblansa-da, dastlabki nazariy tadqiqotlarni fransuz ma'rifatparvarlari olib borgan. Ikki palatali parlamentlarning jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini va siyosiy irodalarini ifodalashga qodirligini ilk bor nazariy jihatdan buyuk fransuz ma'rifatparvari Sharl Lui Monteske tadqiq etgan edi. U ikki palatali parlamentni ham ijroiya, ham qonun chiqaruvchi hokimiyatlarni “jilovlab turuvchi unumli vosita” sifatida asoslab bergan edi<sup>1</sup>. Ikki palatali parlament tizimining afzalliklari haqidagi fikrlarni Gegel asarlarida ham uchratish mumkin: “Ba'zan bir palatali tizim foydasiga qaror qabul qiladilar, goyoki, bir palatali jamiyat tuzilishining demokratik elementini o'zida ifodalashda vazifasini yaxshi bajaradi. Agar katta majlisdagi muhokamalar qanday kechishi, undagi o'z chiqishlari bilan hurmatga erishishga urinishlar, tez va oylanmagan qarorlar qabul qilish kabilar eslansa, bir palatalik tizimning kamchiliklari osongina ko'zga tashlanadi”<sup>2</sup>. Ya'ni Gegel ham bir palatali – monokameral<sup>3</sup> tizimdan, ikki palatali – bikameral<sup>4</sup> tizimni afzal qo'yapti. Umuman olganda ikki palatali parlament tizimi jamiyatning barcha ijtimoiy tabaqalari manfaatlariga mos keladigan, qabul qilinayotgan qonunlarni puxta va mukammaltarzda ishlab chiqilishini ta'minlaydigan tizim hisoblanadi.

XX asrning so'nggi uch o'n yilligida ikki palatali parlamentlar 45 tadan 70 taga ko'paydi. Shuningdek, yana ko'plab davlatlar ikki palatali tizimga o'tmoqdalar. Bir palatali parlamentlarni deyarli 70 foizi asosan rivojlanayotgan davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda: agar bugun jahonda 87 ta bir palatali

<sup>1</sup> Кудратхўжаев Ш. Ўзбекистонда профессионал парламент тизимининг сиёсий институти сифатида шаклланиши ва ривожланиши истиқболлари. – Т.: “Шарқ”, 2007. – 23-б.

<sup>2</sup> Гегель Г. В. Ф. Философия права. – Москва: Мысль, 1990. С. 476.

<sup>3</sup> Monokameral – bir palatali parlament. Ўзбекистон юридик энсиклопедияси. – Т.: “Адолат”, 316-б.

<sup>4</sup> Bikameral – ikki palatali parlament. O'sha asar. 50-b.

parlamentlar ishlayotgan bo'lsa, ularning 62 tasi 60-yillarda mustaqillikka erishgan uchinchi dunyo mamlakatlariga tegishlidir<sup>1</sup>.

MDH mamlakatlari orasida ham bunday tizimni qabul qilgan davlatlarni ko'rishimiz mumkin. Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Belarusiya va Tojikiston shular jumlasidandir. 2005-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida ham ikki palatali parlament faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, ma'muriy buyruqbozlik usuli asosida qurilgan, o'ta mafkuralashgan totalitar tuzumdan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq, erkin jamiyatga o'tishdek o'ta murakkab davrga kirgan edi. O'tish davrining dastlabki bosqichida ikki palatali professional parlament tuzish uchun zarur shart-sharoitlar yo'q edi.

Gap shundaki, bozor iqtisodiyotiga asoslangan, ochiq demokratik jamiyatning huquqiy asoslarini yaratish jabhasida professional bilimlar orttirgan yuristlar, iqtisodchilar va boshqa mutaxassislar yetarli darajada mavjud emasdi. Professional parlamentni shakllantiruvchi professional siyosatchilarning yetarli qatlami yo'q edi. Shu bilan birgalikda, O'zbekistonda hali ko'ppartiyali tizim, saylovchilarning siyosiy madaniyati rivojlanmagan edi va hokazo.

Bu holatni mustaqillikning dastlabki yillaridagi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tashkil etish, unda faoliyat yuritishdagi vazminlik munosabati yetishmasligida ham ko'rish mumkin. O'zbekiston demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich, puxta oylab amalga oshirish tamoyiliga asoslandi. Parlamentarizmni rivojlantirishda ham shu tamoyilga asoslandi va dastlab bir palatali parlament tuzildi.

Prezident I.A.Karimov 2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi. "Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, hayot o'zgarishi bilan, odamlarimizning avvalgi siyosiy va ma'naviy ongi o'zgarishi bilan bizning parlamentimizning tashkil etilishida ham, uning faoliyatida ham tegishli

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси раиси Э. Ҳ. Халиловнинг иккинчи чақириқ Олий Мажлиси еттинчи сессиясидаги Ўзбекистон Республикаси референдумини ўтказиш тўғрисидаги маърузасидан //Халқ сўзи, 2001 йил 11-декабрь.

o'zgarishlar bo'lishi tabiiydir. Shu holatlarni nazarda tutib, men doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tish taklifini kiritmoqchiman. Ya'ni, biz 2004-yilda bo'ladigan saylovlarda parlamentni ikki palatali qilib tashkil etishimiz lozim"<sup>1</sup>. Bu demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g'oyadir. 2001-yil 6-7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilganligini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasini ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga keldi. Haqiqatdan ham o'tgan 13 yil mobaynida mustaqil qonun chiqaruvchi hokimiyat organi mustahkamlandi. Endilikda milliy davlatchiligimizning muhim institutlarini rivojlantirish, jumladan, parlamentni ikki palatali qilib tuzish imkoniyati vujudga keldi.

Shu o'rinda bir palatli parlament faoliyat davrini yana bir yodga olib o'tsam. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, bir palatali parlament davrida qonun chiqarish jarayoni tezlashdi. Birinchi galda hayotning o'zi talab qilayotgan eng kerakli qonunlar ishlab chiqildi va qabul qilindi. Parlament mustaqillik munosabati bilan vujudga kelgan huquqiy bo'shliqni tezroq to'ldirdi.

Demokratiya qonun-qoidalariga muvofiq mazkur masala yuzasidan xalqning fikr-mulohazasi o'rganilishi lozim edi. Oliy Majlisning yettinchi sessiyasi 2002-yil 27-yanvar kuni kelgusi chaqiriqda ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi boyicha O'zbekiston Respublikasini referendumini o'tkazish boyicha qaror qabul qildi. Referendumda “Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?” degan savol bilan saylovchilarga murojaat qilindi. Referendumda qatnashganlarning 11.344.242 nafari yoki 93,65

---

<sup>1</sup> Каримов.И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000. – 483-б.



foizi yoqlab ovoz berdi<sup>1</sup>. Saylovchilar ikki palatali parlament tuzish masalasini qo'llab-quvvatladilar. Referendum yakunlari xalqimizning, bir tomondan, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iborat O'zbekiston yo'lini qo'llab-quvvatlayotganini ko'rsatdi. Ikkinchi tomondan, islohotlarni izchil va qat'iylik bilan davom ettirish va yanada chuqurlashtirishni katta umid bilan kutayotganligini bildirdi.

2002-yil 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonun va "2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari boyicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida" Qaror qabul qildi. Bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Ikki palatali parlament tuzilgandan so'ng ham u Oliy Majlis deb atalishi belgilab qoyildi. Uning tarkibida ikkita palata tuziladi. Quyi palata – Qonunchilik palatasi, Yuqori palata – Senat deb ataladi.

2002-yil 12-dekabr kuni Oliy Majlisning o'ninchi sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi hamda bu qonunlarni amalga kiritish to'g'risida qarorlar qabul qilindi<sup>2</sup>. Mazkur qonunlarning qabul qilinishi parlament sohasidagi yangi islohotlarga huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi nazarda tutildi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun 38 ta moddadan iborat bo'lib, uning birinchi moddasida "Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) maqomini belgilash, Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etishga va uning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (bundan buyon matnda

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси Ахборотномаси. – Т.: Шарқ, 2002. - № 1(5). - 35-б.

<sup>2</sup> Одилқориев Х.Т., Тультеэв И.Т. Икки палатали парламент. – Т.: "Академия", 2005 й. – 23-б.

Senat deb yuritiladi) hamda boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorligiga doir munosabatlarni tartibga solishdan iborat"<sup>1</sup>, - deyiladi.

Avvalgi bobda keltirib o'tganimdek, ikki palatali parlamentga o'tkaziladigan saylovlar 2004-yil 26-dekabrga belgilandi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasini nihoyatda faol tashkil etdi. Qonunchilik palatasiga saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish maqsadida 120 ta okrug saylov komissiyasi va 8088 ta uchastka saylov komissiyasi tuzildi.

Ularda aholi keng qatlamlarining vakilligi ta'minlangani diqqatga sazovordir. Xususan, uchastka komissiyalari a'zolari orasida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millatlardan 14 millatning vakillari borligini, ulardan 292 nafari xotin-qizlar vakilasi, 13 nafari fan doktori va 29 nafari fan nomzodi ekanligini e'tirof etish lozim. O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan 40 ta elchixona va vakolatxonalarida ham saylov uchastkalari tashkil etilib, ular yordamida chet davlatlarda ishlayotgan 14 mingdan ziyod O'zbekiston fuqarosining saylov huquqi ta'minlandi<sup>2</sup>.

Ularda aholi keng qatlamlarining vakilligi ta'minlangani diqqatga sazovordir. Xususan, uchastka komissiyalari a'zolari orasida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ziyod millatlardan 14 millatning vakillari borligini, ulardan 292 nafari xotin-qizlar vakilasi, 13 nafari fan doktori va 29 nafari fan nomzodi ekanligini e'tirof etish lozim. O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan 40 ta elchixona va vakolatxonalarida ham saylov uchastkalari tashkil etilib, ular yordamida chet davlatlarda ishlayotgan 14 mingdan ziyod O'zbekiston fuqarosining saylov huquqi ta'minlandi<sup>3</sup>.

Saylovda siyosiy partiyalar va saylovchilar tashabuskor guruhlaridan 489 nafar deputatlikka nomzod, jumladan, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan – 108, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan – 114 nafar, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidan –

---

<sup>1</sup> “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида”ги Конституциявий Қонун. 1-модда. 2002 й.

<sup>2</sup> Одилқориев Х.Т., Тультеев И.Т. “Икки палатали парламент”. – Т.: “Академия”, 2005 й. – 7-б.

<sup>3</sup> Ўша жой.

58, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan – 71, Saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan – 54 nafar deputatlikka nomzod ishtirok etdi<sup>1</sup>.

Raqamlar shu yillarda iqtisodiyot sohasida olib borilgan keng qamrovli islohotlar natijasini ko'rsatib turibdi. Ya'ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi va ularning haq-huquq hamda manfaatlarini ifodalovchi partiya – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi vakillarining nomzodlar orasida ko'pligi yuqoridagi natijalarni isbotlab turibdi.

Saylovda ishtirok etuvchilar royxatiga 14323709 nafar saylovchining nomi kiritildi va ularning 12197159 nafari, ya'ni 85,1 foizi ovoz berishda ishtirok etdi.

Birinchi turning ovoz berish natijalariga ko'ra 62 ta saylov okrugida Qonunchilik palatasining deputatlari saylanib, ularni tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan – 21, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan – 18, Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan – 9, Milliy tiklanish demokratik partiyasidan – 6, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan – 2, Saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan 6 nafar vakil tashkil etdi. Saylangan 62 nafar deputatning 8 nafari, ya'ni 12,9 foizi xotin-qizlardan iborat bo'ldi. Qolgan 58 ta saylov okrugida deputatlikka nomzodlarning hech qaysisi ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pining ovozini ololmadi<sup>2</sup>.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi 2004-yil 29-dekabrda takroriy ovoz berishni 2005-yil 9-yanvar kuni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi.

Takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, 58 ta saylov okrugida royxatga olingan 6 mln. 800 mingdan ziyod saylovchidan ovoz berishda 5 mln. 400 ming nafardan ortig'i ishtirok etdi. Bu tegishli okruglarda royxatga olingan saylovchilar umumiy sonining qariyb 80 foizini tashkil etadi.

---

<sup>1</sup> Ўша жойда.

<sup>2</sup> Халқ сўзи. – 2005. – 5-январь.

**2005-yil 9-yanvarda takroriy saylov o'tkazilgan okruglar va unda  
ishtirok etgan saylovchilar ko'rsatkichi haqida ma'lumot<sup>1</sup>**

*2-ilova*

<b>№</b>	<b>Okrug tashkil etilgan hududlar</b>	<b>Okruglar soni</b>	<b>Saylovda qatnashgan saylovchilar ko'rsatkichi (%)</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3	83,2
2.	Andijon viloyati	6	82,9
3.	Buxoro viloyati	1	82,4
4.	Farg'ona viloyati	9	82,1
5.	Jizzax viloyati	1	80,8
6.	Namangan viloyati	4	84,6
7.	Navoiy viloyati	3	76,6
8.	Qashqadaryo viloyati	3	82,5
9.	Samarqand viloyati	7	79,7
10.	Sirdaryo viloyati	2	81,4
11.	Surxondaryo viloyati	6	77,2
12.	Toshkent viloyati	7	74,1
13.	Toshkent shahri	6	71,2

Takroriy ovoz berish natijasiga ko'ra, 58 nafar deputat saylandi va o'tkazilgan ikkita saylov natijasida Quyi palataga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 120 ta deputat saylandi.

**2004 yil saylov ishtirokchilari va saylov yakunlari haqida qisqacha  
ma'lumot<sup>2</sup>**

*3-ilova*

<b>Saylov ishtirokchisi</b>	<b>Ro'yxatga olingan nomzodlar soni</b>	<b>Ovozga qo'yilgan nomzodlar soni</b>	<b>Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar soni</b>
Xalq demokratik partiyasi	118	106	28
«Adolat» sotsial-	72	69	10

<sup>1</sup> Халқ сўзи. – 2005. – 11-январь.

<sup>2</sup> Халқ со'зи, - 2005, январь.

demokratik partiyasi			
«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi	61	59	11
«Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi	89	85	18
Liberal-demokratik partiya	119	113	41
Saylovchilar tashabbuskor guruhlar	58	57	12
Jami	517	489	120

Mustaqillikka erishgach, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ayollarning siyosiy sohadagi faolligi parlament saylovlarida yildan-yilga namoyon bo'lib bormoqda. 2004-yilgi saylov natijalariga ko'ra, Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning qariyb 18 foizini xotin-qizlar tashkil etdi, bu esa 1999-yilda Oliy Majlisga o'tkazilgan saylovdagidan ikki yarim baravar ko'pdir.

#### **2004-yilgi parlament saylovlarida saylangan deputatlar korpusining tarkibi (%)<sup>1</sup>**

*4-ilova*

Yuristlar	Iqtisodchilar	Sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasi vakillari	Qishloq xo'jaligi vakillari	Tadbirkorlar	Fan, ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash sohasi vakillari	Nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari
18,3	21,7	10	7,5	12,5	20	16

2005-yil 27-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi birinchi yig'ilishida Prezident Islom Karimov "Parlament - jamiyat hayotining ko'zgusi" mavzusida nutq so'zladı. Saylovlar oshkoralik, ochiqlik va qizg'in kurashlarda o'tdi, bu jarayon dunyo jamoatchigi tomonidan kuzatildi. Biz

<sup>1</sup> Халқ сўзи. – 2005. 15-январь.

hech kimdan kam emasligimiz, demokratik davlat qurishda o'z yo'limiz borligi, o'ziga xosligi ayon bo'ldi. Doimo bosiq bo'lib jim o'tirish deputatlik faoliyatiga to'g'ri kelmaydi. Har bir deputat o'z vakolati va mas'uliyatini teran his qilishi kerak. Deputat – bu mustaqil fikrli inson. U qaysi partiyaga mansub bo'lmasin avvalo xalq oldida javob berishi kerak. Shu sabab xalq manfaatlari yo'lida parlamentdagi g'oyalar, yondashuvga qarashlar xilma-xil bo'lgani yaxshi. Deputat zalda bo'ladigan muhokama va munozaralar vaqtida 3 ta narsani esdan chiqarmasligini bayon etdi: birinchidan, har qaysi deputat o'zining qadr-qimmatini bilishi lozim. Shundagina u boshqalarni ham hurmat qiladi. Ikkinchidan, mehr-oqibatlilik bizning xalqimizga yarashadigan, xalqimizga xos bo'lgan fazilat ekanini hech qachon esdan chiqarmasligi kerak. Uchinchidan, bobomiz Amir Temur aytganidek, qanday xalqning farzandimiz, degan savolni o'zimizga berishimiz kerak<sup>1</sup>. Shu bilan birga kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik, degan savolni ham hech qachon unutmaslik zarur.

Prezident I.Karimov ikki palatali parlamentni shakllantirishdan maqsadni quyidagicha izohlaydi: “Birinci – parlament o'z vakolatlarini samarali amalga oshirishi, har tomonlama asosli va puxta qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan o'zaro muvozanat va cheklovlar tizimini yaratish. Ikkinchi – Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borishini nazarda tutgan holda, parlamentning qonun ijodkorligi borasidagi ishining sifatini keskin oshirish. Uchinchisi – Senat asosan mahalliy Kengashlar, hududlarning vakillaridan iborat bo'lishini hamda vakillik vazifasini bajarishini inobatga olib, umumdavlat va hududiy manfaatlarining mutanosibligiga erishish. To'rtinchi – aholining mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lamini yanada kengaytirish”<sup>2</sup>.

Umuman olganda, ikki palatali parlamentning yana bir qator ijobiy tomonlarini keltirib o'tish mumkin. Ikki palatali parlamentning quyidagi ijobiy tomonlari bor:

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Парламент – жамият ҳаётининг кўзгуси // 2005 йил 27 январда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси биринчи йиғилишидаги нутқи// Халқ сўзи, 2005-йил 29-январ.

<sup>2</sup> Халқ сўзи. 2005-йил 29-январ.

- ✓ milliy davlatchilik institutlari tizimi o'rtasida parlamentning nufuzi ortadi, Qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyat o'rtasidagi munosabat mutanosiblashadi;
- ✓ populistik maqsadni, shuningdek, faqat ayrim guruhlar manfaatini ko'zlovchi mukammal bo'lmagan qonunlar qabul qilinishiga yo'l qoyilmaydi;
- ✓ mamlakat mintaqalari (viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi)ning manfaatlari to'laroq inobatga olinadi;
- ✓ parlament qabul qilayotgan qonunlarning sifatini yaxshilashga, xalqning xohish-irodasi to'laroq namoyon bo'lishiga imkon beriladi;
- ✓ parlament ishida demokratik fikrlar xilma-xilligi ko'proq namoyon bo'ladi;
- ✓ jamiyat hayotini liberallashtirishni tezlashtiradi;
- ✓ deputatlar faoliyatini professionallashtirishga, siyosatchilar tabaqasini shakllantirishga ko'proq imkoniyat yaratadi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasida ilk bor ikki palatali parlamentning ta'sis etilishi bilan uning hududida qonun ijodkorligi yangicha ma'no va mazmun kasb etishi tabiiy. V.K.Babayev "Qonun ijodkorligi – davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlari normativ aktlarni yaratish borasida amalga oshiriladigan faoliyat"<sup>2</sup>, – deydi. Bu umuman olganda, to'g'ri gap. Lekin davlat hokimiyatining boshqaruv organlari ham qonun ijodkorligi bilan shug'ullanadi, deb hisoblash to'g'ri bo'lmasa kerak.

Qonunchilik jarayoni haqida to'liq va batafsil tasavvur etish uchun uning mazmunini tashkil etuvchi bosqichlarni chuqur tahlil etish kerak. Ko'pchilik huquqshunos olimlar va mutaxassislarining fikriga ko'ra, qonunchilik jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1) qonunchilik tashabbusini amalga oshirish; 2) qonun loyihasini muhokama qilish; 3) qonunni qabul qilish; 4) qonunni imzolash va e'lon qilish. Mazkur bosqichlarni bosib o'tish orqali yangi qonunlar qabul qilinadi. Bu qonunlar esa jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligiga xizmat qilishi lozim.

<sup>1</sup> Кудратхўжаев Ш. Т. Ўзбекистон Республикасида парламент тизимининг сиёсий институтлар сифатида шаклланиши ва ривожланиши истикболлари: Сиёсий фанлар номз. ... дис. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси, 2005. 76-б.

<sup>2</sup> Бабаев В.К. Правотворчество. Общая теория права. – Новгород, 1993. – с.313.

Ikki palatali qonun chiqaruvchi idoramiz oldida turgan muhim vazifalardan biri – jahon parlamentarizmi an’analarini, demokratik parlament tarzida ishlash ilmini va parlament madaniyatini puxta o’zlashtirishdan iborat<sup>1</sup>. Bu vazifani ado etish asosida ko’plab islohotlar amalga oshirilib, Oliy Majlis faoliyati yanada takomillashtirib borildi.

Ikki palatali Oliy Majlis 2005-2009-yillarda ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishida katta ahamiyatga ega bo’lgan 250 dan ziyod qonun qabul qildi<sup>2</sup>. Mazkur qabul qilingan qonunlar sifati yanada takomillashib, xalqning huquqiy bilimi va madaniyati yanada boyib bordi.

Birinchi marta chaqirilgan ikki palatali parlament vakolat muddati tugagach, 2009-yil 27-dekabr kuni saylovlar – 2010-yil 10-yanvar kuni takroriy saylovlar demokratiya, muqobillik va oshkoralik ruhida bo’lib o’tdi. Avvalgi chaqiriqda Qonunchilik palatasiga 120 nafar deputat saylangan bo’lsa, bu galgi saylovlarda 150 nafar deputat saylandi. Ulardan 15 nafari O’zbekiston Ekologik harakatining konferensiyasida, 135 nafari saylovchilar tomonidan saylandi.

2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan “Saylov to’g’risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonunning kuchga kirishi birinchi galda siyosiy partiyalarning faolligini oshirishga ko’maklashgan bo’lsa, ikkinchi tomondan ularga katta ma’suliyat ham yukladi. Ya’ni ushbu qonunga muvofiq, Qonunchilik palatasidagi 150 ta deputatlik o’rnidan 135 tasiga faqat siyosiy partiyalar nomzod ko’rsatish, huquqiga ega bo’ldi, 15 ta o’rin esa, saylov kvotasiga binoan, O’zbekiston Ekologik harakatiga berildi.

---

<sup>1</sup> Таджиханов У., Одилқориев Х., Саидов А. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳукуки. – Т., 2001. – 559-б.

<sup>2</sup> [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)



2009-yilgi parlament saylovlari natijasi<sup>1</sup>

Saylov ishtirokchilari	Qonunchilik palatasidagi o'rinlar soni
Xalq demokratik partiyasi	32
“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	19
Milliy tiklanish demokratik partiyasi	31
O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi	53
O'zbekiston Ekologik harakati	15

Joriy yil, ya'ni 2014-yil ikkinchi chaqiriq ikki palatali Oliy Majlisning vakolat muddati tugashi munosabati bilan dekabr oyining uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida parlament saylovlari tashkil etiladi.

Shunday qilib, parlamentni bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tkazilishi xalqning xohish va irodasi bilan amalga oshirildi. Avvalo, bu islohot uchun qulay muhit va shart-sharoit yaratib olindi. Bu jihat xalqning davlat tomonidan o'tkazilayotgan chuqur islohotlar va modernizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashini isboti deyish mumkin.

---

<sup>1</sup> [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

## 2.2 Parlamentdagi fraksiyalar faoliyati, yutuq va kamchiliklari

Parlament faoliyatida fraksiyalar tashkil etilishi eng muhim hisoblanadi. Fraksiya lotincha “fractio” soʻzidan olingan boʻlib, yemirish, buzib tashlash degan maʼnoni anglatadi<sup>1</sup>. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamentining 54-moddasida “Fraksiya — siyosiy partiyadan saylangan deputatlarning partiya manfaatlarini parlament palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda royhatdan oʻtkazilgan deputatlar birlashmasidir”<sup>2</sup>, – deb belgilab qoʻyilgan.

Keling shu oʻrinda, fraksiyalar tashkil etishning xorijiy tajribasi haqida ham fikr yuritsak. GFR Bundestagi Reglamentining 10-§ga koʻra, «ayni bir partiyaga yoki ayni bir yoʻnalishdagi siyosiy maqsadlarga ega boʻlib, hech bir oʻlkada oʻzaro raqobatlashmaydigan partiyalarga mansub boʻlgan deputatlar birlashmasi fraksiyalar hisoblanadi»<sup>3</sup>. Bolgariya Xalq Majlisi Reglamentining 16-moddasida shunday deyilgan: «Xususiy, mahalliy va kasbiy manfaatlarini himoya qiluvchi parlament guruhlarini tashkil etilishi mumkin emas»<sup>4</sup>. Bunday taqiqlar boshqa davlatlar (Armaniston, Gruziya, Ukraina, Fransiya) parlamentlarining reglamentlarida ham mavjud.

Partiyaviy fraksiyalar tashkil qilishda son mezoni yagona partiyaga mansub deputatlar sonining eng kam miqdori mavjudligini bildiradi. Ushbu masalaga koʻra hozirgi mamlakatlar parlament qonunchiligi bir-biridan ancha farq qiladi, chunki amalda bunday mezonning belgilanishi har bir mamlakat uchun oʻziga xos boʻlgan koʻplab turli omillarni inobatga olishni talab etadi. Mazkur mezon yo deputatlarning muayyan eng kam sonini belgilash orqali (Fransiyada – Milliy Majlisda 20 nafar, Senatda 10 nafar deputat; Avstriya va Shveysariyada – 5 nafar deputat va h.k.), yo palata umumiy sonining muayyan foizini belgilash orqali (GFR Bundestagida 5 %) taʼminlanadi. Baʼzan fraksiya tashkil qilish uchun biror

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т., 2000. – 256-б.

<sup>2</sup> “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Регламенти тўғрисида”ги Қонун. 54-модда, 2005. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>3</sup> Федеративная Республика Германии: Конституция и законодательные акты. – М., 1992. – С. 216.

<sup>4</sup> Държавен вестник. – 1991. – Бр. 105; Бр. 1, 6.

minimum umuman belgilanmaydi, bunda bittadan ortiq mandatga ega bo'lgan har qanday mustaqil partiya parlament guruhini tashkil qilishga haqli bo'ladi (Armaniston, Portugaliya)<sup>1</sup>.

Partiya fraksiyasi degan tushuncha bilan birgalikda deputatlar guruhlarini degan tushuncha ham mavjud. Deputatlar guruhlarini Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko'rsatilmagan deputatlar tuzishga haqli.

Deputat faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a'zosi bo'lishi mumkin. Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan va Qonunchilik palatasiga saylangan deputat faqat shu partiya fraksiyasining a'zosi bo'lishi mumkin yoki hech bir fraksiya yoxud deputatlar guruhiga kirmaslikka haqli. Deputatning fraksiyaga yoki deputatlar guruhiga kirishi to'g'risidagi qaror ularning majlislarida qabul qilinadi.

Odatda Parlament fraksiyasi tarkibiga partiyaning yetakchilari va ko'zga ko'ringan arboblari kiradi. Parlament fraksiyasi partiyaviy intizom bilan bog'langan bo'ladi. Partiya fraksiyasiga maxsus organlar boshchilik qiladi. Alohida muhim ovoz berishlardan oldin parlament fraksiyasilari kengashib oladi. Parlament fraksiyalarini tashkil etish va ular faoliyati masalalarini parlament va uning palatalari reglamentlari, shuningdek, konstitutsiyaviy odatlar boshqarib turadi.

Fraksiya tuzish uchun kamida to'qqiz nafar deputat bo'lishi talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamentining 55-moddasida belgilanishicha, fraksiya tuzish uchun yana quyidagi jihatlar talab qilinadi<sup>2</sup>:

- ✓ fraksiya yoki deputatlar guruhining ta'sis yig'ilishini o'tkazish;
- ✓ fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish to'g'risidagi ta'sis bayonnomasini qabul qilish;
- ✓ fraksiya yoki deputatlar guruhi rahbarini saylash zarur bo'ladi.
- ✓ Fraksiya yoki deputatlar guruhining rahbari fraksiya yoki deputatlar guruhi tuzilgani to'g'risidagi ta'sis bayonnomasini Qonunchilik palatasiga taqdim

<sup>1</sup> Очерки парламентского права. Парламенты мира. – М., 1991. – С. 257.

<sup>2</sup> “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Регламенти тўғрисида”ги Қонун. 55-модда, 2005. www.lex.uz

etadi va tegishincha fraksiya yoki deputatlar guruhi tuzilgani haqida Qonunchilik palatasiga axborot beradi, bu Qonunchilik palatasi majlisining bayonnomasida qayd etiladi. Fraksiyalar va deputatlar guruhlari hisobga olish royxatidan o'tkaziladi.

- ✓ Belgilanmagan tartibda tuzilgan deputatlar birlashmalari fraksiya yoki deputatlar guruhi huquqlaridan foydalanmaydi.
- ✓ Fraksiya va deputatlar guruhi tuzilgani to'g'risida Qonunchilik palatasi qaror qabul qiladi, uni Qonunchilik palatasi majlisida raislik qiluvchi imzolaydi.

Fraksiyalar Qonunchilik palatasida o'z umumiy manfaatlarini ifodalash va faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida fraksiyalar blokiga birlashishlari mumkin. Deputatlarning yarmidan ko'pini birlashtirgan fraksiya yoki fraksiyalar bloki parlament ko'pchiligini tashkil etadi. Tashkiliy jihatdan parlament ko'pchiligiga kirmagan fraksiya o'zini parlamentdagi muxolifat deb e'lon qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamentining 58-moddasida parlament fraksiyalari va deputat guruhlarining vakolatlari belgilab berilgan<sup>1</sup>.

Unga ko'ra, parlament fraksiyalari Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va mohiyati yuzasidan takliflar hamda fikr-mulohazalar kiritadi; Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan har bir masala yuzasidan munozaralarda fraksiya, deputatlar guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so'z berilishi huquqidan foydalanadi; kelishuv komissiyasi va boshqa komissiyalar tuzish to'g'risida masala qoyadi; Qonunchilik palatasi majlisida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning tasarrufiga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan murojaat etadi; Qonunchilik palatasi majlisida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan fraksiyaning, deputatlar guruhining fikrini deputatlar o'rtasida tarqatadi va yana bir qator huquqlarga ega.

---

<sup>1</sup> “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Регламенти тўғрисида”ги Қонун. 58-модда, 2005. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Yuqorida tilga olingan qonunning 61-moddasida fraksiyalar faoliyatining tugatilish holatlari belgilab berilgan. Ya'ni, fraksiya yoki deputatlar guruhining o'z tashabbusiga binoan; Qonunchilik palatasining vakolatlari muddati tugaganda; fraksiya yoki deputatlar guruhi tarkibiga kiruvchi deputatlar soni ularni tuzish uchun zarur bo'lgan meyordan kamayib ketganda; tegishli siyosiy partiyaning faoliyati tugatilganda. Fraksiyalar yoki deputatlar guruhlari faoliyatining Qonunchilik palatasining vakolatlari muddati tugashidan oldin tugatilishi Qonunchilik palatasining qarori bilan rasmiylashtiriladi. Fraksiyalar faoliyati qonuniy yo'l bilan ana shunday tartibda belgilab qoyilgan.

1995-yil 23-24-fevral kunlari bo'lib o'tgan Birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida 69 deputatdan iborat Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi, 47 deputatdan iborat "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi va 14 deputatni uyushtirgan "Vatan tarqqiyoti" partiyasi fraksiyasi royxatga olindi.

Keling fraksiyalar faoliyati, ularning yutuq va kamchiliklarini tahliliy baholash uchun 2005-2009-yillarda faoliyat yuritgan parlament faoliyatiga nazar tashlaymiz.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 24-moddasiga binoan qonunchilik palatasida to'rtta siyosiy partiya fraksiyalari faoliyat yuritmoqda. Bular "O'zbekiston-Liberal demokratik partiyasi" – 41 kishidan iborat, "O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi" – 28 kishidan iborat, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi – 10 kishidan iborat hamda "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi va "Milliy tiklanish" partiyasi birlashishi natijasida 2008-yil 14-avgustda tuzilgan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyalarining 29 kishidan iborat fraksiyalaridir<sup>1</sup>.

Qonunchilik palatasida birinchi marta parlamentdagi ko'pchilik – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston-Liberal demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va shuningdek, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyalarini birlashtirgan Demokratik blok shakllandi. Ayni

---

<sup>1</sup> Беков И.У. Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг шаклланиши ва фаолиятида сиёсий партиялар иштирокининг ҳуқуқий асослари. Юрид. фан. номз. ... дис. – Т., 2009. - 110-б.

vaqtda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi timsolida parlamentdagi muxolifat tashkil topdi<sup>1</sup>.

Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyatida mamlakatimizda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni, qulay investitsion muhitni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, bank-moliya tizimini rivojlantirishni normativ-huquqiy jihatdan ta'minlash masalalari alohida o'rin egalladi.

2005-2009-yillarda parlamentda faoliyat ko'rsatgan fraksiyalar ishini tahlil qilib, og'ir kelgan 2009-yilda mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti 8,1 foizga o'sgani, sanoat sohasi 9 foizga, iqtisodiyotimizga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 26 foizga, shu jumladan, tashqi investitsiyalar 68 foizga oshgani, o'rtacha oylik darajasining o'sishi 40 foizga, aholi daromadlari esa 26,5 foizga ko'payganini ta'kidlash lozim<sup>2</sup>. Shuni ta'kidlash kerakki, parlamentimiz sud-huquq tizimini chuqur isloh qilish va liberallashtirish, sud hokimiyatining amaldagi mustaqqilligini ta'minlash boyicha mamlakatimizda olib borilayotgan keng miqyosli ishlarga ham salmoqli hissa qo'shdi. O'tgan besh yil mobaynida qabul qilingan 58 ta qonunga muvofiq, sud-huquq tizimidagi islohotlar yanada chuqurlashtirildi. Albatta, bu yutuqlarga erishishda partiya fraksiyalari muhim o'rin egallaydi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi so'zlagan nutqida bildirilgan bir fikrni eslab o'tish o'rinlidir: "Yashirishning hojati yo'q, o'tgan chaqiriq parlamentdagi partiya fraksiyalari nomigagina faoliyat ko'rsatgan edi. Men ulardan birortasini muayyan bir qonun loyihasini taklif qilib, uni sessiya majlisi tasdig'idan o'tkazish, hayotga tatbiq etish bo'yicha aniq tashabbus bilan chiqqanini eslay olmayman. Qani o'zingiz ayting, qaysi fraksiya qaysi qonunning

---

<sup>1</sup> Каримов. И.А. Жахон инкирозининг оқибатларини енгишб мамлакатимизни модернизатция қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасигақўтарилиш сари. – Т.: "Ўзбекистон", 2010. – 128-б.

<sup>2</sup> O'sha asar, 130-b.

asosiy muallifi yoki muharriri bo'ldi? Ularni ishlab chiqib, muhokamalardan o'tkazishda jonkuyarlik ko'rsatib, qattiq kurash olib bordi?"<sup>1</sup>

Fraksiyalar faoliyatida yuzaga kelgan kamchiliklar haqida fikr bildirilar ekan, avvalo, 2005-2009-yillarda faoliyat yuritgan Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi boyicha mamlakat rivojlanishiga har jihatdan to'la mos keluvchi, zamonning o'zi talab qiluvchi, uzoq istiqbolga mo'ljallangan o'z dasturiga ega emasligini ta'kidlab o'tish zarur.

Qolaversa, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarda jadal rivojlanayotgan islohotlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni kiritish tashabbusi bilan chiqishda va ularni qabul qilinishini tezlashtirishda sustkashlik qilingani jiddiy kamchilik hisoblanadi. Keyingi besh yil mobaynida Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan 297 ta qonun loyihasidan atigi 44 tasi deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan. Ayni paytda, 42 ta qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan, 160 da ortiq qonun loyihasi esa mamalakatimiz hukumati tomonidan kiritilgan bo'lib, ularning aksariyat qismi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarining ijrosini ta'minlash munosabati bilan taqdim etilgan<sup>2</sup>.

Qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini tubdan yaxshilash talab qilinadi. Ularning ko'pchiligi amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritishga qaratilgan bo'lib, kodifikatsiyalashish xarakteriga, ya'ni muayyan darajada tizimlashuv mazmuniga ega emas.

Va eng asosiy kamchilik qabul qilinadigan qonunlarda aksariyat o'rinlarda ana shu qonun hujjatlarining hayotga tatbiq etilishini ta'minlaydigan protsessual mexanizmlarning mavjud emasligida ko'zga tashlanadi.

Bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 4 ta fraksiya faoliyat yuritadi. Ular O'zbekiston Liberal-demokratik pariya fraksiyasi, Xalq demokratik partiyasi, Milliy tiklanish demokratik partiyasi va "Adolat" sotsial-demokratik

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. – Т.: “Ўзбекистон”, 2005. – 169-б.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза//2010-йил 27-янв. - Халқ сўзи, 2010-йил 28-янв.

partiyasi fraksiyalari hisoblanadi<sup>1</sup>. Mazkur fraksiyalarning bugungi kunga qadar ko'pgina qonunlarning muhokamasida faol ishtiroki orqali yodda saqlash mumkin. Amaldagi chaqiriq bu kunga qadar 200 ga yaqin qonun loyihalarini ishlab chiqdi va qabul qildi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda faoliyat olib borayotgan parlament fraksiyalari ishini ijobiy baholash mumkin.

Parlament saylovlarida siyosiy partiyalar fraksiya tuzish uchun talab qilinadigan o'ringa ega bo'lsalar, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunning 7-moddasiga ko'ra, davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bordi-yu, bunday o'ringa ega bo'lmasa, avvalo, fraksiya tuzish imkonidan mahrum bo'adi va xarajatlarni davlat byudjetiga qaytarishi talab qilinadi. Bu holat siyosiy partiyalarning yanada jonlanishi va ular o'rtasida raqobat muhiti yaratilishiga olib keladi.

Demak, parlamentda partiya manfaatlarining ifodachisi sifatida talqin etiladigan parlament fraksiyalari faoliyati, tashabbuskorligi ko'p jihatdan siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o'rni va mavqe'yini belgilab beradi. Bundan kelib chiqadiki, Oliy majlis faoliyatining yutuqli va kamchilik tomonlarini unda faoliyat olib borayotgan fraksiyalar faoliyati orqali ham tahlil qilish mumkin.

### **2.3 Qonun chiqaruvchi hokimiyatning takomillashuvi borasida olib borilgan islohotlar**

Mamlakatimizda "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini amalga oshirish jarayonida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi barcha maqsad va vazifalar mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lida uzoqni ko'zlagan tadbirlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, "Shu munosabat bilan alohida ta'kidlab aytmoqchimanki, mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan davrida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartirishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya

---

<sup>1</sup> [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)



qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishimiz darkor"<sup>1</sup>. Bu holatning tasdig'i sifatida mamalakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat'iy va izchil tus olgani, odamlar o'zgarib yanada faollashgani ko'zga tashlanib turibdi. Ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ong-u tafakkuri yuksalib, yon-atrofdan bo'layotgan barcha voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotgani islohotlar samarasi hisoblanadi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng, davlat hokimiyati sub'ektlari o'rtasida vakolatlarni to'g'ri taqsimlash masalasi bosqichma-bosqich hal etildi. Ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanish, siyosiy, davlat-huquqiy va fuqarolik institutlarining yetukligi ortishi, siyosiy madaniyat va huquqiy ongning yuksalib borishi bilan Prezident vakolatlarini izchil va bosqichma-bosqich ravishda Parlamentga va Vazirlar Mahkamasiga o'tkazib berilishi asosida davlat boshqaruvi organlarining ma'suliyati ortib bordi.

Ikki palatali milliy parlamentimizni tashkil etish masalasi bo'yicha 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari va shu asosda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning asoslarini belgilab berdi<sup>2</sup>.

2007-yilda mamlakat Prezidenti ilgari bir vaqtning o'zida egallab kelgan Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimini tugatilgani liberallashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Qabul qilingan qonunlarga binoan, Bosh Vazir Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish bilan birga, unga rahbarlik qiladi, uning faoliyati samaradorligiga shaxsan javob beradi, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi bo'yicha qarorlar qabul qiladi<sup>3</sup>.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir"

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. – Т. "Ўзбекистон", 2011. – 40-б.

<sup>2</sup> Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. 2010. – 9-б.

<sup>3</sup> O'sha asar.

nomli ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek, bu borada oldimizda tuegan vazifalardan biri "siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishdagi roli va ta'sirini tubdan kuchaytirishdir"<sup>1</sup>.

2007-yil 11-aprelda Oliy Majlis tomonidan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur qonun sakkizta moddadan iborat bo'lib, Qonunning maqsadi davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishdan iborat. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga tegishli tuzatishlar, shuningdek amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish uchun asosdir. Mazkur Konstitutsiyaviy qonun ilk marotaba "parlament ko'pchiligi", "blok", "parlament muxolifati" tushunchalariga huquqiy jihatdan aniqlik kiritdi.

Ushbu Konstitutsiyaviy qonunning 2-moddasi 2-qismiga ko'ra: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etadi<sup>2</sup>.

Mazkur qonunning 4-moddasida belgilanishicha, "O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mansabdor shaxslari saylanganidan va organlari shakllantirilganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining har biri bilan hamda saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati ko'rib chiqishi hamda tasdiqlashi uchun taqdim etiladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2005. – 174-222-б.

<sup>2</sup> «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида» 2007 йил 11 апрель конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2007.– № 4. – 161-модда.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozini olgan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi”<sup>1</sup>.

Davlatchilik tizimining demokratik yangilanish jarayonlarida “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi” navbatdagi qudratli turtki bo‘ldi. Konsepsiya 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida e‘lon qilindi.

Konsepsiyaga binoan, oltita yo‘nalishda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Ulardan birinchisi “Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish” deb nomlanadi.

Unga ko‘ra, Prezident, qonun chiqaruvchi hokimiyat va ijro etuvchi hokimiyat o‘rtasidagi vakolatlar yanada oqilona taqsimlandi. Ushbu masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasida (2010-yil 12-noyabr) quyidagilarni ta‘kidladi: “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko‘p deputatlik o‘rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdim etilgan Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqqanidan keyin o‘n kun muddat ichida uni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun taklif etadi. Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a‘zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi o‘rtasida ziddiyatlar

---

<sup>1</sup> “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида” Конституциявий қонун. 4-модда, 2007. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

doimiy tus olgan holda Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish bo‘yicha qaror qabul qiladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste’foga chiqadi. Yangi Bosh vazir nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan tegishli maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ko‘rib chiqish va tasdiqlashga taqdim qilish uchun taklif etiladi. Oliy Majlis tomonidan Bosh vazir lavozimiga nomzod ikki marta rad etilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir vazifasini bajaruvchini tayinlaydi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tarqatib yuboradi”<sup>1</sup>.

Ma’lumki, parlament tomonidan Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirish instituti bir qancha rivojlangan davlatlar tajribasida ham qo‘llaniladi. Jumladan, Fransiya Respublikasi Konstitusiyasining 49-moddasiga muvofiq, Milliy majlis (parlamentning quyi palatasi) a‘zolari umumiy sonining kamida o‘ndan bir qismi imzolagan «tanbeh» rezolyusiyasiga ovoz berish orqali hukumatga ishonchsizlik votumi bildiriladi. Konstitusiyaning 50-moddasiga muvofiq esa, Milliy yig‘ilish a‘zolarining ko‘pchiligi rezolyusiyani qo‘llab ovoz bergan taqdirda hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirilgan hisoblanadi va hukumat iste’foga chiqadi. Yaponiya Konstitusiyasining 69- moddasiga

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси. – Т., 2010. - 12-13-б.

muvofiq, Vakillar palatasi (parlamentning quyi palatasi) hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumini bildirsa yoki ishonch bildirishni rad etsa, hukumat to'liq tarkibda iste'foga chiqadi<sup>1</sup>.

Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi tegishlicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan deb hisoblanishi vakillik hokimiyati organi bo'lgan Oliy Majlisning mavqei va mas'uliyatini yanada oshiradi. Bunda ishonchsizlik votumini qabul qilish uchun oddiy ko'pchilik emas, balki deputatlar va senatorlar malakali ko'pchiligining ovozi talab etilishi masalaning g'oyat muhimligidan dalolat beradi.

2011-yilgi konstitutsiyaviy islohot parlament maqomini yanada mustahkamlab, uning siyosiy mavqeyini oshirdi va islohotlarni samarali olib borilishi uchun mas'ul bo'lgan hukumatni, ya'ni jamiyatdagi hukmron siyosiy manfaatlarni ifoda etadigan parlamentga hisob beradigan hukumatni shakllantirishga asos soldi.

Qolaversa, joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi muhokamasiga davlatimiz rahbari tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)"gi qonun loyihasining kiritilishi hokimiyat tarmoqlari vakolatlarining mutanosib ravishda bo'linishini ta'minlash tamoyiliga asoslangan milliy davlatchilik modelini takomillashtirish borasida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomidir.

Amalga oshirilgan barcha islohotlar demokratizm tamoyillarini yanada kengroq joriy etishga qaratilgan bo'lib, parlament vakolati va ma'suliyatini oshishiga olib keldi. Ayniqsa, bu 2010-yil 12-noyabr Konsepsiyasida yaqqol ko'zga tashlandiki, unga ko'ra, Bosh vazir nomzodini taklif etish va tasdiqlash tartibi, shuningdek, uning hisobotini tinglash va muhokama qilish instituti Parlamentning rolini kuchaytirishga ko'maklashadi.

---

<sup>1</sup> Икрамов Ш.Т. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш Концепцияси амалда. –Т.: “Академия”, 2013. - 16-17-б.

### III BOB. MAVZUNI KASB-HUNAR KOLLEJLARI VA AKADEMIK LITSEYLARDA O'QITISHNING TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODIK TAVSIYALAR

#### 3.1. Mavzuni kasb-hunar kollejlari va Akademik litseylarda o'qitishning ta'lim texnologiyalari

**Mavzu: O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi  
hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi**

#### Darsni olib borish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti- 2soat	O'quvchilar soni: 30 nafar	
Mashg'ulot shakli	Aralash	
Mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat shakllanishining huquqiy asoslari.</li> <li>2. O'zbekistonda Oliy Majlisning shakllanish jarayoni tarixi.</li> <li>3. Parlament tuzilishi va vakolatlari.</li> <li>4. Bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tilishi jarayonlari.</li> </ol>	
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi :</b> O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishini tushuntirib berish, shu mavzuga oid tushuncha va tasavvur hosil qilish.		
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat shakllanishining huquqiy asoslari haqida tushuncha berish.</li> <li>2. O'zbekistonda Oliy Majlisning shakllanish jarayoni tarixi haqida malumot berish.</li> <li>3. Parlament tuzilishi va vakolatlari haqida ma'lumot berish.</li> <li>4. Bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tilishi jarayonlari haqida tushuncha berish.</li> </ol>	<p>O'quv faoliyati natijalari:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat shakllanishining huquqiy asoslari haqida tushunchaga ega bo'ladilar.</li> <li>2. O'zbekistonda Oliy Majlisning shakllanish jarayoni tarixi haqida malumotga ega bo'ladilar.</li> <li>3. Parlament tuzilishi va vakolatlari haqida fikrga ega bo'ladilar.</li> <li>4. Bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tilishi jarayonlari haqida fikrga ega bo'ladilar.</li> </ol>	
Ta'lim berish usullari	Ma'ruza, "Aqliy hujum", "T - jadval", "Tushunchalar tahlili" texnologiyalari	

Ta'lim berish shakllari	Umumiy, kichik guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari	Maruza matni, qo'llanma, tarqatma materiallar,
Ta'lim berish sharoiti	Jihozlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Reyting savol-javob va pedagogik texnologiya asosida

### Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<b>Tayyorlov bosqichi</b>	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi.	
<b>1. O'quv mashg'ulotiga kirish (15 daqiqa)</b>	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi (1-ilova). 1.2. O'quvchilarni baholash mezonini bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.3. Mavzu boyicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda "Aqliy hujum" pedagogik texnologiyasini o'tkazib, o'quvchilar bilimlarini faollashtiradi (3-ilova).	Tinglaydilar.  Tinglaydilar.  Tinglaydilar, jadvalni to'ldiradilar.
<b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	2.1. Mashg'ulot rejasiga asosan mavzu qisqacha bayon etiladi. 2.2. Mavzu boyicha o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun "T" jadvali pedagogik texnologiyasi o'tkaziladi (4-ilova).	Tinglaydilar, yozib oladilar.  O'quvchilar mustaqil ishlaydilar
<b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	3.1. Mavzu boyicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beriladi. 3.2. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. Umumiy mavzu boyicha "Tushunchalar tahlili" texnologiyasi qo'llaniladi (5-ilova). 3.3. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Savollar beradilar.  Tinglaydilar.  Vazifani yozib oladilar.

**Mavzu: O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi**

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat shakllanishining huquqiy asoslari.
2. O'zbekistonda Oliy Majlisning shakllanish jarayoni tarixi.
3. Parlament tuzilishi va vakolatlari.
4. Bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tilishi jarayonlari.

***O'quv mashg'ulotining maqsadi*** : O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishini tushuntirib berish, shu mavzuga oid tushuncha va tasavvur hosil qilish.

***O'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijasi***: O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishini tushuntirib berish, shu mavzuga oid tushuncha va tasavvur hosil qilishadi.

**Talabalar bilimlarini baholash mezonlari**

<b>Mezonlar</b>	<b>Maksimal ball</b>
Berilgan barcha topshiriqlarni “a’lo” darajada bajarishi, savol-javoblarda faol ishtirok etishi, erkin mushohada qilishi va auditoriyani hurmat qilishi	<b>5</b>
Barcha topshiriqlarni bajarishi, faol ishtirok etishi va auditoriyani hurmat qilishi	<b>4</b>
Mashg'ulot davomida mavzu mohiyatini tushunishi, o'rtacha bilimga egaligi auditoriyani hurmat qilishi	<b>3</b>
Mashg'ulotda passiv ishtirok etishi,	



mavzuning mazmun-mohiyatini tushunmaslik, topshiriqlarni talab darajasida bajara olmaslik	2—1
---	-----

**3-ilova**

**“Aqliy hujum” texnologiyasi**

1.	O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat nima deb ataladi?
2.	Qachondan boshlab Oliy Kengash o'rniga Oliy Majlis o'z faoliyatini boshladi.
3.	Qachon O'zbekistonda professional parlamentga asos solindi?
4.	Bugungi kunda O'zbekistonda nechta siyosiy partiya faoliyat yuritadi?
5.	Oliy Majlis Qonunchilik palatasida nechta deputat saylovchilar tomonidan saylanadi?

**4-ilova**

<p><b>“T” jadvali</b> asosida <b>“Ikki palatali parlament”</b>ning ijobiy va salbiy tomonlarini yoritib bering.</p> <p><b>Savol:</b> Ikki palatali parlamentning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiling.</p>
--

Ijobiy		Salbiy

### “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi

#### **Mashg’ulotning o’tkazish tartibi:**

- o’quvchilar mashg’ulotni o’tkazishga qoyilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
  - tarqatma materiallar o’quvchilarga tarqatiladi.
  - o’quvchilar tarqatma materiallarda mavzu boyicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o’zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarning qanday tushungan bo’lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
    - O’quvchi tarqatma materiallarda mavzu boyicha berilgan tushunchalarni o’qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to’g’ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkon bo’lsa) tanishtiriladi;
      - har bir o’quvchi to’g’ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchalarga ega bo’ladilar, o’z-o’zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

#### **Quyidagi tayanch tushunchalar mazmunini yoriting.**

№	Tushuncha	Tushuncha izohi
1.	Parlament	
2.	Fraksiya	
3.	Deputat	
4.	Qo’mita	
5.	Demokratiya	
6.	Partiya	
7.	Bikameral	
8.	Monokameral	
9.	Ratifikatsiya	
10.	Donotatsiya	
11.	Referendum	
12.	Plyuralizm	
13.	Reglament	
14.	Dotatsiya	
15.	Ombudsman	

### **3.2. “O‘zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi” mavzusini o‘rta maxsus ta‘lim tizimida o‘qitish uchun metodik tavsiyalar**

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta‘limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo‘lib fikrlash, o‘zaro harakat qilmoq deb yuritiladi, ya‘ni pedagogik ta‘sir etish usullari bo‘lib ta‘lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchi-talabanning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta‘minlashi;

- o‘quvchi - talabanning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o‘quvchi-talabanning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Darslarni tashkil etish va olib borishda ko'plab pedagogik texnologiyalar qo'llash taklif etilmoqda. Bu albatta darslarni samarali tashkil etilishiga yordam beradi. Keling, shu o'rinda texnologiya tarixiga bir nazar tashlaymiz.

Texnologiya so'zi fanga 1872 yilda kirib keldi. U yunoncha «texos»-hunar, mahorat va «logos» esa ta'limot yoki fan degan ma'noni beradi. Qisqacha «mahorat haqidagi fan» ma'nosini anglatadi. Bugungi kunda ayrim kishilar pedagogik texnologiya– bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb oylashadi. Bu to'g'ri emas. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi– bu o'qituvchi-trener va talaba-o'quvchilarning begilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq<sup>1</sup>.

“O'zbekistonda Oliy davlat vakillik organi – Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi va rivojlanishi” mavzusini Akademik litsey va Kasb – hunar kollejlarda o'qitishda “Blits – so'rov”, “T – jadval”, “Rezyume”, “Muammoli vaziyat”, “Tushunchalar tahlili”, “BBB”, “Bahs(debat)lar”, “SWOT” tahlil jadvali, “FSMU”, “Aqliy hujum”<sup>2</sup> kabi interfaol texnologiyalardan foydalanish mumkin. Ushbu mavzuda qo'llash mumkin bo'lgan bazi bir interfaol texnologiyalar va ularning ishlatish yo'llarini keltirib o'tamiz.

FSMU texnologiyasi<sup>3</sup>. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (talaba (yoki o'quvchi)larning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baqslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi-talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini

<sup>1</sup> Ёълдошев Ж.Ф., Усмонова С.А. Педагогик технологиялар асослари - Т., 2004. 4-бет

<sup>2</sup> Толипов Ў.К., Усмонбозова М. Педагогик технологияларнинг таркибий асослари. - Т., 2006.13-бет.

<sup>3</sup> Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар - Т., 2001. 59-бет

tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

BMI mavzusi ma'lumot jihatidan juda boy mavzu hisoblanadi. Shuning uchun mavzuni o'qitishda yuqoridagi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mavzuda ayrim tayanch so'zlar (olinma so'zlar) chetdan kirib kelgan bo'lib, ularni o'zlashtirib olish uchun yuqoridagi texnologiya foydali hisoblanadi.

“Venna diogrammasi” orqali “Bir palatali parlament” va “Ikki palatali parlament” orasidagi farqlar va o'xshashliklar tahlil qilinishi mumkin. Umuman olganda, mavzuni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni darsga qiziqtirish bilan birga, ularni mavzuni puxta o'rganishlariga yordam beradi.

## XULOSA

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'z oldiga huquqiy, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etishni maqsad qilib qo'ydi va davlat boshqaruvida demokratiya yo'lini tanlab oldi. Bu maqsad yo'lida esa O'zbekiston keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Bu islohotlarni markazida davlat hokimiyatini tashkil etish, qonun chiqaruvchi hokimiyatni shakllantirish masalasi dolzarb masala sifatida ko'tarildi. Mustaqilligimiz tarixiga nazar tashlasak, 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda kechgan o'tish davrida yuzaga kelgan ko'p sohalardagi qiyinchiliklarga qaramay milliy parlamentimiz – Oliy Majlisni shakllantirildi.

Bitruv malakaviy ishini tahlil qilish jarayonida qonun chiqaruvchi hokimiyatni shakllantirish bilan bog'liq quyidagi jihatlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim:

Birinchi, O'zbekiston milliy parlamentni shakllantirishda tadrijiy yo'l, ya'ni bosqichma-bosqich yo'lni tanlab oldi. Chunki, mustaqillikning ilk kunlarida butunlay yangitdan qonun chiqaruvchi hokimiyatni shakllantirish imkoni yo'q edi.

Ikkinchi, demokratiyaning asosiy shartlaridan biri saylovlarda ko'ppartiyaviylik tizimi joriy etildi.

Uchinchi, professional parlamentga asos solishda xorijiy tajriba mukammal o'rganildi va biz uchun mos va foydali jihatlarni tanlab olindi.

To'rtinchi, professional parlament tuzilishida dunyodagi ko'pchilik demokratik davlatlar tomonidan tan olingan va e'tirof etilgan quyi va yuqori palatalardan iborat ikki palatali tizim shakllantirildi. Quyi palata – Qonunchilik palatasi doimiy ishlashga asoslandi.

Qabul qilinayotgan qonunlar aholi farovonligini, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularda demokratik tamoyillar aks etganini ko'rish mumkin. Lekin milliy parlamentimiz tarixiga nazar tashlasak, ikki palatali parlamentning dastlabki chaqirig'i Qonunchilik palatasida faoliyat yuritgan fraksiyalar yo'l qo'ygan kamchiliklar bilan yodda qoldi.

Lekin keyingi chaqiriq, ya'ni bugungi kunda faoliyat yuritayotgan parlament bir qator hayot talab qilayotgan, islohotlarni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashadigan qonunlarni qabul qildi. Olib borilgan islohotlar orasida yana Qonunchilik palatasida 15 ta o'rinni O'zbekiston Ekologik harakatiga ajratilgani, ayniqsa, bugun dunyoda global darajaga ko'tarila olgan ekologik muammoni O'zbekiston sharoitida oldini olish borasida qilingan muhim qadam sifatida baholash mumkin.

Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyatida mamlakatimizda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni, qulay investitsion muhitni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, bank-moliya tizimini rivojlantirishni normativ-huquqiy jihatdan ta'minlash masalalari alohida o'rin egalladi.

So'ngi yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyatni takomillashtirishga qaratilgan islohotlarga nazar tashlasak, 2010-yil 12-noyabrda qabul qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi" demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini davom ettirishda muhim turtki bo'ldi. Konsepsiya orqali Oliy Majlis vakolatlari oshirilib, Vazirlar Mahkamasini uning oldida hisobdor qilib qo'yilishi va Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasida ko'p o'ringa ega bo'lgan siyosiy partiya tomonidan ko'rsatilishi uning mavqe'yi va ma'suliyatini yanada oshirdi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalari qatori davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida ham yurtimizda tinchlik-xotirjamlikni, siyosiy barqarorlikni, ijtimoiy totuvlikni, iqtisodiy taraqqiyotni, fuqarolar huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq keng qamrovli islohot va modernizatsiya jarayonlari davom ettirilmoqda. Bu natijalarga erishishda albatta, qonun chiqaruvchi hokimiyatning o'rni beqiyos.

Parlamentning yana bir asosiy funksiyasi – Parlament nazoratini kuchaytirishga qaratilgan qator islohotlar qabul qilingan qonunlar hayotda qay darajada o'ringa ega bo'layotganini tahlil qilishda qo'l keladi.

Agar qabul qilinayotgan aksariyat qonunlarning tashabbuskor sub'yektlari haqida gap ketsa, Vazirlar Mahkamasi – ijro etuvchi hokimiyat ular orasida peshqadam hisoblanadi. Sababiki, hukumat qonun qabul qilingandan so'ng birinchi bo'lib qonun bilan yuzlashadigan organ hisoblanadi. Shuning uchun ham, tashabbuskorlik Vazirlar Mahkamasida boshqa sub'yektlardan ko'ra yuqoriroq hisoblanadi.

Shunday qilib, parlamentni bir palatali tizimdan ikki palatali tizimga o'tkazilishi xalqning xohish va irodasi bilan amalga oshirildi. Avvalo, bu islohot uchun qulay muhit va shart-sharoit yaratib olindi. Bu jihat xalqning davlat tomonidan o'tkazilayotgan chuqur islohotlar va modernizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashini isboti deyish mumkin.

Faoliyatini yakuniga yetkazayotgan ikkinchi chaqiriq ikki palatali parlament demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lida sobitqadamlik bilan ish yuritmoqda.

Yil oxirida o'tkazilishi rejalashtirilgan parlament saylovlari mamlakatimiz va xalqimiz hayotida muhim demokratik jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, barcha saylovchilar o'z haq-huquqlarini to'g'ri anglagan holda saylovda ishtirok etishlari lozim.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 1. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
2. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.
3. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.
4. Каримов И. А. Бунёдкорлик ёълидан. Т. 4. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 349 б.
5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.
6. Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт ёъида. Т. 6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
7. Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 413 б.
8. Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 525 б.
9. Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъульмиз. Т. 9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 439 б.
10. Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
11. Каримов И. А. Биз танлаган ёъл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик ёъли. Т. 11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
12. Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. Т. 12. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – 400 б.
13. Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайдди. Т. 13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 448 б.
14. Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият Т. 14. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 273 б.
15. Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т. 15. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 320 б.
16. Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш ёълида. Т. 16. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 368 б.
17. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
18. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш контсепсияси. //Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси

### Қонун ва қонун ости ҳужжатлари:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 40 б.
2. «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида» 2007 йил 11 апрель конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2007.– № 4. – 161-модда.
3. «Сиёсий партиялар тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997.– № 2. – 36-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати аъзоларининг сайловига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг қарори // Халқ сўзи. – 2004. – 31 дек.
5. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Регламенти тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. № 9–10. – 137-м.
6. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Регламенти тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 9–10. – 136- модда.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 август (янги таҳрирдаги) қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. № 9–10. – 137-м.
8. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2002. – № 12. – 213-модда; 2003. – № 5. – 67-модда.
9. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги Конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2002. – № 12. – 215-модда; 2003. – № 5. – 67-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. – 2007. – № 4. – 163-модда; № 7. – 326-модда.

## Maxsus adabiyotlar

Аҳмадшоева М. А., Расулов Ш. В. Сайлов қонунчилиги: 100 саволга 100 жавоб. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 48 б.

1. Бўченко С. Очерки парламентского права. Парламенту мира. – М: Норма, 1991. – 257 с.
2. Бойдадаев М. Ўзбекистон Республикасида давлат бошқаруви тизими шаклланиши ва ривожланишининг ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Академия, 1999. – 184 б.
3. Демократия асослари (мақолалар тўплами). – Тошкент: Университет, 1997. – 352 б.
4. Ҳуқуқий демократик ислохотлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 192 б.
5. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – 664 б.
6. Жўраев С. А. Фуқаролик жамияти: назарият ва амалиёт (Илмий-таҳлилий мақолалар тўплами). – Тошкент: Шарқ, 2003. – 204 б.
7. Каримов И.А. Парламент – жамият ҳаётининг кўзгуси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг биринчи йиғилишида сўзланган нутқи.
8. Мирхамидов М. Ўзбекистон: демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қуриш ёълида. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 272 б.
9. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 560 б.
10. Одилқориев Х. Икки палатали парламент шароитида қонунчилик жараёни. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 40 б.
11. Одилқориев Х. Т., Раззоқов Д. Х. Сиёсатшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 342 б.
12. Одилқориев Х. Т., Тултеъев И. Т. Икки палатали парламент. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – 344 б.
13. Ўзбекистон фуқаролик жамияти сари. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 344 б.
14. Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш ёълида. – Тошкент: Академия, 2005. – 640 б.
15. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасидаги ЎзЛиДеП фракцияси фаолияти: Баённомалар ва ҳисоботлар. – Тошкент, 2005. – 231 б.
16. Ўзбекистон тарихи (1917–1993 йиллар). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 346 б.
17. Парламент сайлови: миллий қонунчилик ва хорижий тажриба. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти, 2009. – 286 б.

18. Қодиров А. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизимини шакллантиришнинг контсептуал муаммолари // Ҳуқуқ–Право–Law. – Тошкент, 2002. – № 4. –Б. 51–53.
19. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 512 б.
20. Сиёсий партиялар мамлакатни модернизациялаш жараёнида . – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – 396 б.
21. Усмонов Қ. Ўзбекистонда парламент тараққиётининг янги босқичи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. – 48 б.
22. Халилов Э. Ҳ. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 384 б.
23. Юнусов Х. Ўзбекистон: сиёсий ислохотлар ва жаҳон тажрибаси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 163 б.

#### **Dissertatsiya va avtoreferatlar**

24. Қудратхўжаев Ш. Т. Ўзбекистон Республикасида парламент тизимининг сиёсий институтлар сифатида шаклланиши ва ривожланиши истиқболлари: Сиёсий фанлар номз. ... дис. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси, 2005. – 158 б.
25. Беков И.У. Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг шаклланиши ва фаолиятида сиёсий партиялар иштирокининг ҳуқуқий асослари: Юридик фанлар номз. ... дис. – Тошкент: Тошкент давлат юридик институти 2009.

#### **Ommaviy axborot vositalari nashrlari**

##### **Internet nashrlari**

[www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)

[www.uza.uz](http://www.uza.uz)

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)

## ILOVALAR


### Tayanch atamalarning lug'aviy ma'nosi

<b>№</b>	<b>Atama</b>	<b>Olingan til</b>	<b>Lug'aviy ma'nosi</b>
1.	Parlament	Fransuzcha	gapirmoq
2.	Fraksiya	Lotincha	Yemirib, buzib tashlash
3.	Deputat	Lotincha	Vakil etilgan
5.	Demokratiya	Yunoncha	Xalq hokimiyatchiligi
6.	Partiya	Inglizcha	Qism, bo'lak
7.	Bikameral	Inglizcha	Ikki palatali parlament
8.	Monokameral	Inglizcha	Bir palatali parlament
9.	Ratifikatsiya	Inglizcha	Tasdiqlash
10.	Denonsatsiya	Inglizcha	Rad etish
11.	Plyuralizm	Yunoncha	Ko'p fikrlilik
12.	Reglament	Fransuzcha	Tartib, qoida
13.	Dotatsiya	Lotincha	Tuhfa
14.	Ombudsman	Shvedcha	Biror kishi manfaatlarining vakili

### Xorijiy davlatlar parlamenti nomlari

№	Davlatlar nomi	Qonun chiqaruvchi hokimiyat nomi
1.	Ozarbayjon	Milliy Majlis
2.	Armaniston	Millat Majlisi
3.	Bahrayn	(Amir va) Milliy Kengash (parlament) amalga oshiradi.
4.	Gurjiston	Parlament
5.	Isroil	Knesset (120 deputati 4 yil muddatga saylanadi)
6.	Yaman	Deputatlar palatasi
7.	Qozog‘iston	Senat va Majlis (parlament)
8.	Tojikiston	Majlisi Oli
9.	Turmakiston	Majlis
10.	Bangladesh	Milliy Majlis (330 deputat)
11.	Butan	Milliy Assambleya (150 a‘zodan iborat (105 nafari saylanadi, 10 nafari tayinlanadi, qolganlari — rasmiy kishilar, hukumat a‘zolari va podsho kengashining a‘zolari)
12.	Hindiston	Prezident va ikki palata — Shtatlar kengashi (Raja sabxa) hamda Xalq palatasi (Log sabxa)
13.	Mo‘g‘uliston	Buyuk davlat xurali
14.	Yaponiya	Parlament (Vakillar palatasi va Maslahatchilar palatasi)
15.	Vyetnam	Millat majlisi
16.	Indoneziya	Parlament — xalq vakillari kengashi. (500 deputatidan 462 nafari 5 yil muddatga saylanadi. 38 nafari (harbiylar fraksiyasi) prezident tomonidan tayinlanadi)
17.	Gvatemala	Milliy congress
18.	Gvineya	Millat majlisi
19.	Gvineya-bisau	Millat xalq majlisi (102 deputat)
20.	Gondurus	Milliy assambleya
21.	Gayana	Millat majlisi
22.	Daniya	Qirolicha va Folketing (179 deputat)
23.	Ekvador	Milliy kongress
24.	Angola	Milliy assambleya (220 deputat)
25.	Eron	Islomiy Kengash majlisi
26.	Estoniya	Davlat kengashi (Riygikogu)
27.	Efiopiya	Federal majlis – Federatsiya kengashi (yuqori palata) va Xalq vakillari kengashi (quyi palata)
28.	Yamayka	Parlament (senat va vakillar palatasi)
29.	Slovakiya	Milliy kengash
30.	Belgiya	Parlament vaqiroi (Vakillar palatasi 150 deputatdan)

	qirolligi	va senat 72 a'zodan)
31.	AQSh	Kongress
32.	Buyuk Britaniya	Parlament
33.	Xitoy	Xalq vakillari Buykxitoy majlisi
34.	Finlyandiya	Eduskunt
35.	Polsha	Seym
36.	Ispaniya	Kortes
37.	Shvetsiya	Riskdag
38.	Germaniya	Bundestag
39.	Norvegiya	Starting
40.	Misr	Xalq Assambleyasi
41.	Islandiya	Alting
42.	Afg'oniston	Jihod Kengashi
43.	O'zbekiston	Oliy Majlis
44.	Portugaliya	Respublika majlisi
45.	Sloveniya	parlament — Davlat majlisi va Davlat Kengashi
46.	Lyuksemburg	Deputatlar palatasi
47.	Belorussiya	Millat majlisi (Vakillar palatasi va Respublika Kengashi)
48.	Fransiya	Parlament 2 palata (Milliy majlis va Senat)
49.	Bolgariya	Xalq majlisi (doimiy ishlaydigan organ).
50.	Lixtenshteyn	Landtag
51.	Shvetsariya	Federal majlis (Milliy kengash va Kantonlar kengashi)
52.	Malta	Vakillar palatasi
53.	Filippin	Filippin Kongressi
54.	Jazoir	Milliy xalq majlisi




**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi binosi**





## O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi



«ПАРЛАМЕНТАРИЗМ БИЛИМДОНИ»  
ТАНЛОВИДА ИШТИРОК ЭТИНГ



## TAYANCH SO'ZLAR LUG'ATI

№	O'zbek	Рус	English
1.	Parlament	Парламент	Parliament
2.	Oliy Majlis	Олий Мажлис	Oliy Majlis
3.	Deputat	Депутат	Deputy
4.	Demokratiya	демократия	Democracy
5.	Hokimiyat	Власть	Executive
6.	Hukumat	Правительство	Government
7.	Partiya	Партия	Party
8.	Siyosat	Политика	Politics
9.	Fraksiya	Фракция	Faction
10.	Qo'mita	Комитет	Committee
11.	Qonun	Закон	Law
13.	Konstitutsiya	Конституция	Constitution
14.	Palata	Палата	Chamber
15.	Qonun chiqaruvchi hokimiyat	Законодательная власть	Legislative authority
16.	Senat	Сенат	Senate
18.	Sessiya	Сессия	Session
19.	Davlat hokimiyati	Государственная власть	State authority
20.	Davlat boshqaruvi	Государственное управление	State management
21.	Reglament	Регламент	Reglament
22.	Saylov	Выборы	Election
23.	Saylovchi	Избиратель	Voter
24.	Huquq	Право	Right
25.	Vakolat	Представление	Representation
27.	Islohot	Реформа	Reform
28.	Modda	Статья	Article
39.	Bob	Глава	Article
30.	Konsepsiya	Концепция	
31.	Foiz	Процент	Percent
32.	Nomzod	Кандидат	Candidate
33.	Referendum	Референдум	Plebiscite, referendum
34.	Quyí palata	нижняя палата	The lower chamber
35.	Yuqori palata	верхняя палата	The upper chamber
36.	Ijro etuvchi hokimiyat	Исполнительная власть	Executive authority
37.	Sud hokimiyati	Судебная власть	Judicial authority
38.	Huquqshunos	Адвокат	Lawyer

39.	Iqtisodchi	Экономист	Economist
40.	Pedagog	Педагог	Pedagogue
41.	Kengash	Кенгаш	Council (the Kengash)
42.	Rais	Главный руководитель	Chief, head
43.	Spiker	Спикер	Speaker
44.	Komissiya	Комиссия	Commission
45.	O'rinbosar	Заместитель	Assistant, deputy. Replacement
46.	A'zo	Член	Member
47.	Prokuror	Прокурор	Attorney, prosecutor
48.	Prezident	Президент	President
49.	Bosh vazir	Премьер министр	Premier minister
50.	Markaziy saylov komissiyasi	Центральная избирательная комиссия	Central election comission